FVV
Vaziyat

XAVF-XATAR MAYDONIDA QALQONMIZ XALQ YONIDA

Gazeta 2004-yil 7-maydan chiqa boshlagan

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi nashri

2026-YIL 17-SENTYABR № 38 (1083)



SADOQATLI DO‘ST, ISHONCHLI HAMROH!



AVVALLARI TUN DEGANDA CHINAKAM QORONG‘ILIK TUSHUNILARDI. ODAMLAR GULXAN YORUG‘IDA O‘TIRAR, BOSHLARINI KO‘TARSALAR MINGLAB YULDUZNI KO‘RAR-DILAR. LEKIN SHAHARLAR KATTALASHIB, HAMMA YOQDA SUN’IY CHIROQLAR YONGACH, YULDUZLAR ASTA-SEKIN KO‘ZDAN G‘OYIB BO‘LDI. BUGUN KO‘PCHILIGIMIZ TUNDA OSMON-NI KERAKSIZ YORUG‘LIK BILAN TO‘LDIRADIGAN SHAHARLARDA YASHAYMIZ, SHUNING UCHUN YULDUZLI OSMON KO‘PCHILIK UCHUN BEGONA MANZARAGA AYLANGAN.

Yorug‘lik ifloslanishi bir necha omilga bog‘liq. Birinchidan, yomon loyihalashtirilgan chiroqlar yorug‘likni pastga emas, atrofga va osmonga sochadi. Ikkinchidan, kerak bo‘lmagan joyda yoki vaqtda chiroq yoqib qo‘yiladigan ortiqcha yoritish keng tarqalgan. Uchinchidan, shaharlashuvning tez o‘sishi zich joylashgan, ko‘p yoritilgan hududlarni kengaytirmoqda. To‘rtinchidan, sanoat platformalari, kasalxonalar, gipermar-ket avtoturargohlari va reklama tablolari ko‘pincha ko‘cha chiroqlaridan ham ko‘proq yorug‘lik sochadi.

Yorug‘lik ifloslanishi – sun’iy yorug‘likdan tunda noto‘g‘ri yoki ortiqcha foydalanishning har qanday salbiy oqibati. Suv, havo va tuproq ifloslanishidan farqli o‘laroq, bu muammoga juda kam e’tibor qaratiladi. Vaholanki, u inson salomatligiga, yovvoyi tabiatga va iqtisodga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Muammoning ko‘lami hayratlanarli. “Science Advances” jurnalida e’lon qilingan dunyo bo‘yicha sun’iy tungi osmon yorqinligi atlasiga ko‘ra, dunyo aholisining 83 foizdan ortig‘i yorug‘lik bilan ifloslangan osmon ostida yashaydi. Jumladan, barcha yevropaliklar va amerikaliklarning 99 foizdan ko‘prog‘ida vaziyat shunday. Bundan ham achinarlisi, insoniyatning uchdan biri sun’iy yorug‘lik tufayli tunda Somon yo‘lini, ya’ni o‘z galaktikamizni umuman ko‘ra olmaydi.

“DarkSky International” ma’lumotiga ko‘ra, iqlim o‘zgarishining asosiy omili bo‘lgan karbonat angidrid yiliga taxminan 2 foizga ortib, har 30 yilda ikki baravar ko‘payadi. Yorug‘lik ifloslanishi esa yiliga 9,6 foizga o‘sib, sakkiz yildan kamroq vaqtda ikki baravarga ortadi. Ya’ni karbonat angidriddan deyarli besh baravar tezroq ifloslanadi.

O‘sish tezligi hamma joyda bir xil emas. Shimoliy Amerikada u yiliga taxminan 10,5 foizni, Yevropada esa o‘rtachadan past – 6,5 foizni tashkil etadi. Qizig‘i shundaki, sun’iy yo‘ldosh o‘lchovlari atigi 2 foiz o‘sishni ko‘rsatadi. Buning sababi zamonaviy oq LED chiroqlar ko‘k spektrda nur sochadi, sun’iy yo‘ldosh sensorlari esa ko‘k yorug‘likni deyarli ko‘rmaydi. Shu bois yerdan turib o‘lchangan haqiqiy ko‘rsatkich ancha yuqori chiqadi.

Milliardlab yillar davomida butun hayot Yerning kun va tun almashinuvi ritmiga moslashib kelgan. Bu ritm o‘simlik va hayvonlarning genetikasiga singib ketgan. Sun’iy yorug‘lik tabiiy siklni keskin buzadi. Tungi turlar, ayniqsa, zarar ko‘radi, barcha umurtqali hayvonlarning taxminan 30 foizi va umurtqasizlarning 60 foizi tungi hayot kechiradi.

Qushlar eng ko‘p zarar ko‘radigan-lardan biri. Ko‘plab ko‘chmanchi qushlar tunda yulduz va oy yorug‘ligida yo‘l topib uchadi, sun’iy yorug‘lik esa ularni chalg‘itib, shaharlarning xavfli tungi muhitiga adashtirib kiritadi. “American Bird Conservatory” hisob-kitobiga ko‘ra, faqat AQShda yiliga to‘rt milliondan ortiq ko‘chmanchi qush yorqin yoritilgan minora va binolarga urilib halok bo‘ladi. Shimoliy Amerika bo‘ylab bu raqam turli baholarga ko‘ra, yiliga 98 milliondan deyarli bir milliardgacha yetadi.

Dengiz toshbaqalari ham juda zaif. Ular okeanda yashaydi, lekin tunda qirg‘oqda tuxumdan chiqadi. Yangi tug‘ilgan toshbaqachalar okean ustidagi yorug‘ ufqni sezib dengizga yo‘l oladi, sun’iy chiroqlar esa ularni teskari yo‘naltiradi. Ular quruqlikka qarab yuradi va charchoq, suvsizlik, yirtqichlar yoki transport ostida nobud bo‘ladi. “Britannica” ma’lumotiga ko‘ra, birgina AQShda yiliga o‘n minglab toshbaqacha shu tarzda halok bo‘ladi, Floridaning o‘zida bu son millionlarni tashkil etadi.

Hasharotlar uchun sun’iy chiroqlar “halokatli joziba”ga aylanadi. Hasharotlarning qariyb yarmi tunda faol hayot kechiradi. BMT Ko‘chmanchi turlar konvensiyasi (CMS) ijroiya kotibi Emi Frenkelning ta’kidlashicha, yorug‘lik ifloslanishi xavf ostidagi turlarning tiklanishini to‘xtatadi va ularning migratsiya, ko‘payish hamda omon qolish imkoniyatlarini kamaytiradi.

Sun’iy yorug‘lik yovvoyi hayotdagi kabi inson organizmidagi kunlik ritmni ham izdan chiqaradi. Bu jarayonning markazida melatonin gormoni turadi. Melatonin qorong‘ida ishlab chiqariladi va yorug‘lik mavjud bo‘lganda to‘xtaydi. U nafaqat uyquni boshqaradi, balki kuchli antioksidant va immunitetni qo‘llab-quvvatlovchi moddadir. Uyqu davomida organizm uning yordamida kun davomida paydo bo‘lgan nuqsonli hujayralarni aniqlab yo‘q qiladi. Tadqiqotlar sun’iy yorug‘lik melatonin ishlab chiqarishni sezilarli pasaytirishini ko‘rsatadi. Kunlik ritmning surunkali buzilishi esa depressiya, yurak-qon tomir kasalliklari, diabet, semizlik va metabolik sindrom bilan bog‘langan.

Tashqi yoritish global energiya iste’molining taxminan 8 foizini tashkil etadi va shu yorug‘likning qariyb 60 foizi keraksiz, ortiqcha yoki noto‘g‘ri yo‘naltirilgani sababli behuda ketadi. AQShda sun’iy yoritishning taxminan uchdan biri isrof bo‘ladi, bu yiliga qariyb 7 milliard dollarlik energiyaning behuda yo‘qolishini anglatadi. Boshqacha aytganda, quyoshbotardan tonggacha yonadigan har bir fonarga sarflangan 100 dollarning 45 dollari yerga umuman yetib bormaydigan yorug‘likka ketadi.

Bu muammoning eng katta afzalligi shundaki, boshqa ifloslanish turlaridan farqli o‘laroq, u deyarli to‘liq qaytariluvchan. Chiroqni o‘chirish yoki to‘g‘ri yo‘naltirish bilan muammo darhol kamayadi. To‘siq texnologiyada emas, balki tartibga solishda.

Asosiy chora-tadbirlar sodda – faqat kerak bo‘lganda, kerak bo‘lgan joyda va kerak bo‘lgan vaqtda yoritish. Reklama, sanoat va savdo obyektlari uchun tungi yoritish me’yorlarini joriy etish. Amaliyotda qo‘llanilayotgan ijobiy misollar bor. Germaniya bu borada yaxshi namuna, ongli yoritish siyosati tufayli ko‘pchilik aholi uyidan turib Somon yo‘lini ko‘ra oladi. Berlindagi avtomagistrallar tunda yoritilmaydi, parklar esa tabiiy hudud sifatida ataylab qorong‘i qoldiriladi. Taqqoslaganda, Amerika shaharlarining aholi jon boshiga nemis shaharlaridan uch-besh baravar ko‘p yorug‘lik sarflaydi. Xalqaro miqyosda ham 2020-yilda BMT Ko‘chmanchi turlar konvensiyasi yorug‘lik ifloslanishini kamaytirish bo‘yicha qo‘llanmalarni tasdiqlagan, ularning yangilangan varianti esa 2024-yilda O‘zbekistonda o‘tkazilgan CMS COP14 anjumanida muhokama qilingan.

Yorug‘likning ifloslanishi suv, havo va tuproq ifloslanishi kabi tan olingan emas, ammo o‘sish sur’ati bo‘yicha ulardan o‘zib ketgan ko‘rinmas tahdiddir. Yiliga 9,6 foiz o‘sish bilan u karbonat angidriddan deyarli besh baravar tezroq tarqalmoqda. Dunyo aholisining 83 foizdan ko‘prog‘i allaqachon ifloslangan osmon ostida yashaydi va insoniyatning uchdan biri Somon yo‘lini umuman ko‘ra olmaydi. Umidbaxsh tomoni shundaki, bu muammo arzon va tez hal qilinadi. Tunni qaytarish uchun bizga yangi texnologiya emas, ongli yondashuv kerak.

Iroda RAHMONALIYEVA,
O‘zbekiston Ekologik partiyasi mutaxassisi

PEDAGOGLARNI QAYTA TAYYORLASH TIZIMI:

tarixiy shakllanish va rivojlanish bosqichlari





Ta’lim tizimi har qanday jamiyatning intellektual yuragi, ma’naviy tayanchi hisoblanadi. Chunki inson ongini, fikrini, e’tiqodini va orzusini shakllantiradigan yagona kuch, bu – ta’lim-tarbiyadir. O‘qituvchi esa jamiyat tafakkurining shakllantuvchisi, millat ruhini tarbiyalovchi, tarix va kelajak o‘rtasida ko‘prik bo‘lib xizmat qiluvchi shaxs sanaladi.

Mustaqillikdan so‘ng bu kasbning nufuzi, ijtimoiy ahamiyati va davlat tomonidan berilayotgan e’tibor darajasi tubdan oshdi. Chunki mustaqil O‘zbekiston uchun o‘qituvchi – endi mafkurani singdiruvchi emas, millatni tarbiyalovchi, fikrlovchi avlodni shakllantiruvchi shaxsga aylandi. Bugun har bir islohot, har bir qaror, har bir tashabbus markazida aynan o‘qituvchi, uning malakasi, mahorati, e’tiqodi turgani ham bejiz emas. Aynan mana shu islohotlar natijasi o‘laroq, bugun o‘qituvchilar “majburiyatni bajaruvchi shaxs” emas, “millatning intellektual elchisi” sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Qayd etish joizki, bugungi natijalarga erishish yo‘li osonlikcha kechmagan. Bugungi ta’lim jarayonining ildizlari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan jadidlik harakati, eski maktab va madrasa tizimining o‘zgarish davrlariga borib taqaladi. Eski maktab tizimi jamiyatni zamon talablariga javob bera oladigan darajada rivojlantira olmas edi: fan, texnika, tibbiyot, iqtisod kabi sohalarda yangi bilimlar deyarli berilmas, hattoki o‘qitilmas ham edi. Ana shunday sharoitda jadid ma’rifatchilari maydonga chiqdi. Ziyolilar xalqni uyg‘otish, o‘qituvchini yangicha ruhda tarbiyalash zarurligini chuqur anglab yetdilar. “Yangi usul” maktablari tashkil qilinib, darslarda arifmetika, geografiya, tabiiyot, ona tili, tarix o‘qitila boshlandi.

Ammo bu uyg‘onish uzoq davom etmadi. XX asr boshidagi siyosiy beqarorlik, inqiloblar, urush va mustamlaka siyosati bu harakatning ildizlarini kesdi. 1920-yillar oxiriga kelib, yangi hokimiyat – sovetlar – ta’lim tizimini butunlay o‘z mafkuraviy nazoratiga oldi. Endi maktabga – “sotsialistik jamiyat quruvchisini tarbiyalash” vositasi, o‘qituvchiga esa “sovet fuqarosini yaratish quroli” sifatida qaray boshlandi. XX asrning 30-yillarida, sovet davrining mafkuraviy bosqichlarida o‘qituvchilarni qayta tayyorlash masalasi davlat siyosatining muhim ustunlaridan biriga aylandi. Bu davrda sovet hokimiyati yangi ijtimoiy qatlam – “sotsialistik ziyolilar”ni shakllantirishni maqsad qilgan edi. Shu sababli ta’lim tizimini markazlashgan, qat’iy nazorat ostidagi tuzilma sifatida qayta qurish zarurati tug‘ildi.

1934-yilda tashkil etilgan malaka oshirish institutlari, xususan O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining 357-sonli qaroriga muvofiq, Toshkentda o‘qituvchilarni qayta tayyorlash bo‘yicha maxsus IPK tizimining shakllanishi o‘sha davr uchun inqilobiy qadamlardan biri edi. IPK – Институты повышения квалификации, ya’ni malaka oshirish instituti degan ma’noni anglatadi. U o‘qituvchilarni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda qayta tayyorlash, yangi metodik ko‘nikmalar berish, ularni sovet ta’limining yagona mafkuraviy yo‘nalishiga moslashtirish uchun tashkil etilgan edi. Xalq ta’limi xalq komissarligi hisobotida shunday deyiladi:

“Qishloq tumanlarida 248 ta o‘quv punkti mavjud, ammo ulardagi 62 foiz o‘qituvchilar pedagogik tayyorgarlikka ega emas. Shu sababli malaka oshirish kurslarini joriy etishga strategik vazifa sifatida qaraladi.” (R-837/12/106)

Arxiv hujjatlarida (R-837/12/106) “o‘qituvchi ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o‘qishi mumkin, o‘qish yillari mehnat stajiga ikki baravar hisoblanadi” degan qat’iy me’yor keltirilgan. Bu me’yor o‘sha davr siyosiy va iqtisodiy sharoitidan kelib chiqqan edi. Chunki o‘qituvchilar soni u qadar ko‘p emas, ularni uzoq muddatli o‘qishga yuborish imkoni yo‘q edi. Davlat uchun asosiy vazifa – qisqa vaqt ichida o‘qituvchi kadrlar tayyorlash, mavjud o‘qituvchilarni yangicha tafakkurga o‘rgatish edi.

1935–1938-yillarda bu tizim bir necha jiddiy muammolar bilan to‘qnashdi: moddiy baza yetarli emasdi, o‘quv-metodik qo‘llanmalar kam edi, malakali pedagoglar soni esa nihoyatda oz edi. 1936-yilgi hisobotlarda IPK uchun ajratilgan mablag‘ atigi 35 ming so‘mni tashkil etgani qayd etiladi (fond R-837/13/118). Bu o‘sha yillarda ta’lim tizimi uchun nihoyatda oz mablag‘ edi. Shunga qaramay, 1938-yilga kelib IPK respublika va viloyat markazlarida faoliyatini kengaytirdi. O‘sha yili 2150 nafar o‘qituvchi qayta tayyorlandi, 12 ta metodik kurs tashkil etildi.

Urush yillari institut faoliyatining katta qismi qisqartirilgan shaklda olib borildi. Ammo 1943-yilda ham 600 o‘qituvchi qisqa muddatli kurslarni tugatgani arxiv hujjatlarida qayd etilgan (Arxiv R-837/28/701). Urushdan keyingi tiklanish yillari esa yangi bosqichni boshlab berdi. 1945-yilda Toshkentdagi “O‘zbekiston o‘qituvchilarini qayta tayyorlash instituti”ga K.D. Ushinskiy nomi berildi. Bu davrga kelib tizim qayta tiklandi, qisqa muddatli kurslar ochildi, urushdan charchagan jamiyatda ta’lim yana umid va hayot belgisi sifatida namoyon bo‘ldi. 1948-yilda esa IPK tizimi to‘liq shakllandi: kurslar, seminarlar, metodik kengashlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shu bilan birga, markazlashgan o‘qitish tizimi yaratildi, har bir o‘qituvchi har 5 yilda qayta tayyorlanishi majburiy etib belgilandi.

Mustaqillik yillariga kelib, bu tizim butunlay yangi mazmun kasb etdi. Endi o‘qituvchi dars jarayonida o‘z yondashuvi, o‘z pedagogik falsafasiga ega mutaxassisga aylanishi uchun zamin yaratildi. Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 6-apreldagi 169-sonli qarori bilan sobiq K.D. Ushinskiy nomidagi institutga Abdulla Avloniy nomi berilib, u Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish markaziy instituti sifatida qayta tashkil etildi. Bu shunchaki nom o‘zgarishi emas, mohiyat o‘zgarishi edi. Qaror mohiyatan ta’limdagi mafkuraviy merosdan voz kechish, milliy o‘zlikka qaytish, pedagogika tariximizni o‘z ildizlariga bog‘lash jarayonining boshlanishi bo‘ldi.

O‘qituvchilar endi o‘z ish joyidan chiqmasdan, onlayn platformalar orqali yangi bilimlar olish imkoniyatiga ega bo‘ldi. O‘qitish jarayonlari kompetensiyalar asosida qayta qurildi. Bu o‘zgarishlar – butun mentalitet o‘zgarishining, o‘qituvchining ijtimoiy maqomi tiklanishining timsoli bo‘ldi. Ayniqsa, keyingi yillarda qabul qilingan qonunlar asosida milliy ta’lim tarixida burilish yuz berib, o‘qituvchining huquqiy maqomi, ijtimoiy kafolatlari, moddiy rag‘batlantirish tizimi hamda jamiyatdagi obro‘-e’tibori davlat darajasida mustahkamladi.

2024-yil esa bu jarayon yangi bosqichga olib chiqildi. Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti to‘liq qayta tashkil etildi. Avvallari malaka oshirish jarayoni ko‘proq formal tusda, an’anaviy auditoriyalarda cheklangan tarzda o‘tgan bo‘lsa, bu tizim uzluksiz, natijaga asoslangan va raqamli shaklga o‘tkazdi.

Tarix bizga ko‘p narsani o‘rgatdi. Agar o‘tmish o‘qituvchidan intizomni, so‘zsiz bajarishni talab qilgan bo‘lsa, bugungi siyosat unga ijod, tashabbus va mas’uliyat erkinligini berdi. Endi o‘qituvchi nafaqat bilim yetkazuvchi, balki tafakkur yo‘lboshchisi, millatning ma’naviy ustuni. O‘tmish xulosalari bugungi erkinlik bilan qo‘shilib, yangi sifat darajasini yaratmoqda. Bugun o‘qituvchi zamon bilan raqobatlashyapti, biroq bu safar yakka o‘zi emas – butun tizim, davlat miqyosida qo‘llab-quvvatlanyapti.

Bugungi Yangi O‘zbekiston ta’lim siyosati – o‘tmish saboqlaridan xulosa olib, porloq kelajak tomon yuz qaratmoqda. Shubhasizki, bu jarayonning markazida millat tafakkurining yo‘lchi yulduzi, ma’naviyat bunyodkori, kelajak me’mori bo‘lgan ustoz-pedagoglar turibdi.

Abbosbek MO‘MINOV,
Abdulla Avloniy nomidagi
pedagogik mahorat
milliy instituti yetakchi
mutaxassisi



O‘ZLIKDAN BEGONALIK TUYG‘USI

(Ommaviy madaniyat – e'tiborli masala)

Yurtimizning ziyoli ayollari yig‘ilgan bir davrada bugungi kun o‘g‘il-qizlarining odob-axloqi, oqibati haqida gap boshlanib qoldi. Bir tanishimizning guvoh bo‘lishicha, 23 yoshlardagi voyaga yetgan qiz dadasining vafotidan so‘ng esi og‘ib borayotgan onasini qishloqqa bir o‘zini tashlab, shaharga ijara uyga ko‘chib ketibdi. “Men erkin odamman, o‘z hayotimni o‘zim qurishim kerak, kasal onamning tuzalishini kutib o‘tirgani toqat qilolmayman”, deya e’tiroz bildiribdi. Ushbu hikoyadan keyin davra ahli o‘z mulohazalarini bildira boshladi.

– Agar shu qizning o‘rnida tarbiyali va oqibatli qiz bo‘lganida shifokorlarga murojaat qilgan, onasiga yolg‘iz qo‘ymay hamisha u bilan birga yashagan bo‘lardi, – dedi yoshlari ulug‘roq opamiz kuyunchaklik bilan. – Axir ota-onasiga kasal bo‘lganida yoki biron qiyinchilikka yo‘liqqanida yordam berish farzandlarning ham burchi hisoblanadi. Balki o‘sha qiz mehr berganida onasi allaqachon tuzalib ketgan bo‘larmidi.

Shundan so‘ng davradoshlarimiz o‘rtasida hozirgi davrning yoshlari o‘ziga xos bo‘lgan “tushunchalar urushi” sharoitida, ularning keskin tus olgan vaqtida yashayotgani, G‘arbdan kirib kelgan, haqiqiy o‘zbekona madaniyatga umuman aloqasi bo‘lmagan, “ommaviy madaniyat” atalmish, bu ajnabiy holat barchani bir tusga, bir qolipga, bir xil fikrlashga odatlantirishga, urf-odatlarimizdan, mentalitetimizdan yuz o‘girtirishga undayotgani haqidagi bahs qizib ketdi.

Darhaqiqat, ijtimoiy tarmoqlarda birin-ketin aylanayotgan videolavhalar, ya’ni vaynlarni kuzatar ekansiz, ota-bobolarimiz “qora” degan narsalarni “oq”, “oq” degan narsalarini “qora” deb uqtirishga pinhona harakat boshlanganini sezish qiyin emas. Keling, shu o‘rinda “ommaviy madaniyat” deganlarining lug‘atiga, ya’ni ushbu “madaniyat” targ‘ib va talqin qilayotgan so‘zlarning mazmun-mohiyatiga tahliliy nazar tashlab ko‘raylik. Masalan, isrofgarchilik hozirgi zamon yoshlari uchun boylik, to‘kin-sochinlik, hashamat, dabdaba belgisidir. Yoshlik esa ayrim turdagi yoshlar uchun tez o‘tib ketadigan, lazzatlanib, rohatlanib, o‘ynab-kulib har xil beboshliklar, bema’nigarchiliklar, nomaqbulchiliklar qilib qoladigan va qilinishi kerak bo‘lgan vaqt.

Vafo, sadoqat tuyg‘ulari feodallar tuzumidan qolgan, umuman qizig‘i, keragi, foydasi yo‘q eskilik sarqitlaridir. Hayo, ibo esa madaniyatsizlik, ma’naviyatsizlik va keragi yo‘q bir mavhum tushunchalardir. Insof qilish – imkoniyatni, fursatni boy berish, chuv tushib, g‘aflatda qolishni anglatadi.

Saxovat ularning nazdida mablag‘ni ko‘r-ko‘rona sarflash, sarmoyani hech qanday maqsadsiz sovurishdir. Yaxshi ota – bola qo‘liga katta miqdordagi pulni berib qo‘yib, barcha xohish-istaklarini ro‘yobga chiqaradigan, ulkan imkoniyatlar yaratib bergan yaxshi sherik ekan. Yomon ota esa bolasiga pul emas, aksincha, ta’lim-tarbiya, bilim, odob-axloq, malaka egallashga, ko‘nikma hosil qilishga ko‘maklashuvchi, tergab turuvchi, kezi kelganda jazolovchi yomon hamkor.

Eng achinarlisi, bugungi avlodning aksariyat qismi oilani shaxsga xohlagan ishini qilishga to‘sqinlik qiluvchi, bema’ni, keraksiz majburiyatlarni yuklovchi, ko‘ngilxushliklarini, kayf-safosini, erkinligini bo‘g‘uvchi, besh kunlik dunyoda yayrab, o‘ynab qolish kerak, degan aqidaga g‘ov bo‘luvchi iskanja, zanjir deb biladi. Bundaylar uchun inson zamonaviyligining yorqin namoyandasi, “zanjirband” bo‘lgan insonga yetishmoq, ozod sevgi tantanasi, g‘alabasidir.

Xudbinlik – o‘zining huzur halovatini o‘ylab, mazza qilib o‘zi uchun, yashashni anglatadi. “Zanjirband” qiluvchi oila, rohatni buzuvchi farzand, keragi bo‘lmay qolgan ota-ona uchun umuman qayg‘urmaslik.

Bunday zamonaviy anglamlar, ya’ni o‘zlikdan begona tuyg‘ular bilan millatimiz ertasini boy berib qo‘yishimiz aniq-ku...

– Fikrsizlik oqibatida tobe bo‘lish — kuch bilan bo‘ysundirilgandan ko‘ra ming chandon fojialidir, – deydi O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist, yozuvchi Olim Toshboyev. – Tarix ko‘p bor guvoh bo‘lgan: qurol-aslaha vositasida bo‘ysundirilgan xalqlar ko‘p yillar, hatto asrlar o‘tsa-da, baribir ozodlikka erishgan. Chunki qurol-aslaha milliy tafakkurni, qalbni zabt eta olmagan – odamlar ongida ozodlikka erishishdek ulug‘ orzu yashayvergan! Ammo xalqning ongi, qalbi mahv etilsa-chi? Bunday xalq milliy ozodlik haqida o‘ylashga qodir bo‘lmasligi, bunga qurbi yetmasligi kunday ravshan. Millat uchun, xalq uchun bundan og‘irroq fojia bormi? Milliy ozodlikni unutish millatning izsiz yo‘qolishi emasmi?.. Binobarin, bir qolipdagi did va saviyaning shakllanishi mamlakatimizda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning mohiyatiga tamomila ziddir.

Shuningdek, yozuvchining ta’kidlashicha, “Ommaviy madaniyat”ning asl maqsadi har ko‘yga solish mumkin bo‘lgan olomonni shakllantirish bo‘lgani bois, u ma’naviy oziq beradigan, badiiy yuksak, o‘quvchini mushohadaga undab, tasavvur olamining kengayishiga xizmat qiladigan asarlarni yaqiniga yo‘latmaydi. Taassufki, bugun ayrim yoshlar orasida “Qaro ko‘zum”ni sel bo‘lib tinglaydiganlarga nisbatan bu mumtoz qo‘shiq ohangidan ensasi qotadiganlar, “Alpomish”dan aytayotgan baxshini ko‘rganda burnini jiyiradiganlar ko‘p. “Ommaviy madaniyat” namunalari, tabiiyki, chinakam badiiy qimmatga ega emas. Ammo u hamisha keng auditoriyani jalb eta olishi bilan hayratlidir. “ommaviy madaniyat” omi odamlarni, ya’ni fikrlash doirasi tor, burnining uchidan narini ko‘ra olmaydigan, ta’bir joiz bo‘lsa, Abdulla Orifning “tilla baliqcha”si kabilarni ohanraboday o‘ziga tortadi: odamlarning o‘tkinchi hoy-u havaslarini qanoatlantirishi, har qanday yangilikni darhol ilg‘ab, o‘zida aks ettirishi bilan ham jozibali. Shu boisdan “shlyager”, “xit”lar darhol eskiradi va kun ko‘rib-ko‘rmay unut bo‘ladi.

Bugun urf bo‘layotgan yangi yo‘nalishdagi qo‘shiqchilik, turli musiqiy shoular, kassabop filmlar foyda ko‘rish, boylik orttirishga xizmat qilmoqda. Bu esa “ommaviy madaniyat”ning keng quloch otishiga zamin hozirlayapti. “Ommaviy madaniyat namoyandalari” jamiyat a’zolari didini belgilovchi ma’lum bir andozalarni shakllantiryapti-ki, bir qarashda bu zararsiz, hatto yoqimli bo‘lib tuyulyapti. Bu aynan yangi jamiyat bunyodkorlari – yoshlarni o‘z domiga tortibgina qolmasdan, ularni mazkur madaniyat targ‘ibotchilariga aylantirib qo‘yayotgani bilan xatarlidir.

Mulohazalarimiz yakunida shuni ham e’tirof etish kerakki, mustabid tuzumning uzoq davom etgan zug‘um va xurujlari o‘zbek millatini mahv eta olmadi, o‘zligidan, ko‘hna qadriyatlaridan ayirolmadi. Boz ustiga, “ommaviy madaniyat” xuruji sobiq imperiya qulashi bilan ham barham topib ketmadi. U endi zamonaviy qiyofada – integratsiyalashish, liberallashish, demokratlashish niqobida yashay boshladi. Achinarlisi, u hali-hamon umuminsoniy qadriyatlar, kishilik tamadduni erishgan eng hayotbaxsh tushunchalardan qurol sifatida foydalanmoqda. Prezidentimiz har gal kuyunchaklik bilan bu xatarga qarshi kurashning mustahkam mexanizmini shakllantirish lozimligi haqida fikr bildirar ekan, “ommaviy madaniyat” niqobidagi tushunchalar bilan umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi tafovutni nozik ilg‘ash muhimligini ta’kidlaydi. Xulosa sifatida aytsak, chin va soxta qadriyatlar o‘rtasidagi chegarani belgilaydigan “qizil ip” tobora injalashib, ko‘rinmaslashib boryapti. Lekin xalqimiz har qanday sharoitda ham asl qadriyatlariga sodiq qolgan va milliy manfaatlariga mos kelgan qadriyatlarnigina tan olgan, qabul qilgan.

Demoqchimizki, “ommaviy madaniyat” niqobidagi istilochilikka qarshi kurashda azaldan o‘zbek xalqida immunitet mavjud. Ammo bu taskin oldimizda ko‘ndalang turgan real xavfni, global dunyo po‘rtanalarini mensimaslik yoxud bemalolchilikka asos bo‘lolmaydi. Binobarin, Prezidentimiz hamisha o‘z ma’ruzalarida ta’kidlaganidek, bunday uzoqni ko‘zlaydigan, aniq maqsadlarga ega bo‘lgan turli xuruj va g‘arazli intilishlar, xorijiy markazlar tomonidan katta kuch, mablag‘ sarflanayotgan harakatlar va bu kabi xavf-xatarlar bizga qanday zararli oqibatlar olib kelishidan har lahza ogoh bo‘lib yashashimiz, o‘zligimizni asrashimiz darkor.

Muxtasar TOJIMAMATOVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi



Qutqaruv operatsiyasining “yuragi” bu – TEXNIKA

Maxsus qutqaruv texnikalariga javobgar shaxslar haydovchi-qutqaruvchilardir. Tashqaridan qaraganda haydovchi qutqaruv ekipajini A nuqtadan B nuqtaga olib borib, qaytarib olib kelish vazifasinigina bajaradigandek ko‘rinadi. Aslida qutqaruvchidan kam bo‘lmagan holda ko‘plab murakkab ishlarni bajarishini bu sohaga yaqinroq nazar tashlagan odam, albatta, anglaydi, his qiladi.

Ruknimizning galdagi sonida 23-yildan buyon Toshkent shahar, Yunusobod tumani 16-qutqaruv qismida katta yo‘riqchi-haydovchi sifatida faoliyat yuritib, hozirda katta texnik vazifasida xizmat qilib kelayotgan fidoyi xodim Dilshod Boltayev faoliyatiga nazar tashlaymiz.

Avtomobil tilini tushunadigan odam biladiki, har bir mashina yuzlab, hatto minglab ehtiyot qismlardan iborat. O‘zimizning xususiy mashinamiz bo‘lsa uni xohlaganchа dizayn qilib, xohlagan qismini istagan paytimizda o‘zgartira olamiz. Ammo davlat tomonidan beriladigan xizmat mashinalarining, ayniqsa, u maxsus mashina bo‘lsa uning har bir mayda detali ham hisobli bo‘ladi. Bu hisob-kitobni katta texnik lavozimidagi shaxs bajaradi.

Yong‘in o‘chirish mashinalarining sozligiga javob berish bilan birga yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish, doimiy ravishda yoqilg‘i moy mahsulotlari, ehtiyot qismlari bilan ta’minlash, yoqilg‘i moy, suv, ko‘pik (penka) sarfini nazorat qilish, yangi kelgan haydovchi-qutqaruvchilarga ish o‘rgatish, shu bilan birga, yo‘l varaqalarining to‘g‘ri yurgizilishini nazorat qilish, avtomobil texpasportining yuritilishi ham texnikning zimmasida. Anglaganingizdek, texnik xodim bu, ko‘p tarmoqli xodim deganidir. 23 yildan buyon mana shunday vazifalarni bekam-u ko‘st bajarib kelayotgan Dilshod Boltayevni chin ma’noda fidoyi va professional xodim deb aytish mumkin. Qahramonimiz suhbat mobaynida qora moy bilan qoplangan qo‘llariga nazar tashlab, ular bilan faxrlanishini alohida e’tirof etgani fikrimizning yana bir isboti desak yanglishmaymiz:

– Men qoraygan qo‘llarimdan uyalmayman. Chunki bu mening halol nonim, – deydi. – Texnik ustaning qo‘li, ust-boshi deyarli toza bo‘lmaydi. Chunki ular doim mashina tagida ishlaydi. Agar toza, yuvib-dazmollangan kiyimda bo‘lsam-u to‘satdan mashina buzilib qolgani haqida xabar topsam kiyimimga ham qarab o‘tirmay mashina tagiga kirib ketaman. Avval haydovchi edim va bir o‘zimga javob berar edim. Hozir esa katta texnikman va qutqaruv qismimizdagi 8 ta texnika va 18 nafar haydovchiga javob beraman. Bu juda katta mas’uliyat.

Ma’lumki, har bir “zapchast”ning amal qilish muddati bo‘ladi. Bordi-yu biror biri muddatidan avval ishdan chiqsa, bunga ham texnik javob beradi. O‘ylashingiz mumkin, bitta ehtiyot qism ishdan chiqsa yangisini oladi-qo‘yadi. Yo‘q, maxsus mashinalarning ehtiyot qismlari noyob hisoblanadi. Shu sabab har qanday maxsus texnikalar bilan ishlovchi xodimlarning ishi ko‘ringanidek oson bo‘lavermaydi.

Dilshod Boltayev avtomobillarning shosse qismidan maxsus agregatigacha javob beradi. Xo‘sh, ayni yong‘in o‘chirish payti maxsus texnikada nosozlik kuzatilsa nima bo‘ladi? Bunga ham qahramonimizda javob bor:

– Darhol voqea joyiga yetib borib, texnikani tuzatish choralarini ko‘raman. Nafaqat ishda, uyimda dam olayotgan bo‘lsam ham boraman. Bir misol. Shu yil Yunusobod tumani 6-dahasida joylashgan maktablarning birida kuzatilgan yong‘inda avtonarvon qotib qoldi. Haydovchi javob bersin, men dam olyapman demadim. Zudlik bilan qutqaruv ekipaji ishlayotgan joyga kelib muammoni bartaraf etdim, – deydi suhbatdoshimiz. – Bu gaplarni maqtanish uchun aytmayapman, men o‘z yo‘nalishimda jamoam, komandirim rahbarlar oldida gap eshitishini, xalq oldida yuzi shuvut bo‘lishini istamayman. Shu sabab har bir ishga vijdonan yondashaman, – deydi u.

Darhaqiqat, ruknimiz mehmoni Parkent tumanida istiqomat qiladi. Shahardan bir necha kilometr uzoqda joylashgan manzildan ishga kelish uchun har kuni kamida bir soat vaqt sarflab kelgan. Bu ham fidoyilikning “ehtiyot qismi” desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yana bir ma’lumotni alohida ta’kidlash joiz, ayni kunlarda yurtimizda ishlab chiqarilgan yangi “Karantas” nomli maxsus qutqaruv mashinasi sinov muddatida turli hududlarda, turli sharoitlarda ishlatilmoqda. Mazkur mashina 16-qutqaruv qismida sinovdan o‘tkazilar ekan, Dilshod Boltayev haydovchilar jamoasi bilan avtomobildan yigirmaga yaqin kamchilik aniqlab, uni kelgusida bartaraf etish choralari bo‘yicha takliflarini avtomobil ishlab chiqaruvchilarga taqdim qilgan. Sababi bu taqdimot kelajakda o‘zimizda yanada mukammal qutqaruv texnikalari ishlab chiqarilishiga xizmat qiladi.

Qahramonimizning shogirdlari haqida so‘z borganda 23 yil mobaynida 16-qutqaruv qismida haydovchilik qilgan deyarli har bir xodim Dilshod Boltayevning shogirdi ekanini angladik. Chorak asrlik davr qisqa muddat emas. Inson buncha vaqt ichida ishini miridan sirigacha o‘rganishi shubhasiz. Bugun qahramonimiz o‘z kasbining miri-yu sirini yosh haydovchilarga o‘rgatmoqda. Bilasiz, maxsus qutqaruv avtomobillarini boshqarish uchun kishida C toifali haydovchilik guvohnomasi talab etiladi. Ya’ni qutqaruvchilik kasbidagi haydovchi mashina haydashni emas, uni boshqarish va sozlashni o‘rganadi. O‘z nomi bilan maxsus deya yuritiluvchi texnikaning o‘sha maxsus jihatlarini o‘zlashtiradi. Bugun qutqaruv texnikalari professionali darajasiga chiqqan Dilshod Boltayev ustozlari haqida shunday deydi:

– Hech kim birdaniga ishining ustasi bo‘lib qolmaydi. Albatta, hamma kimgadir shogird bo‘lib biror kasbga ixtisoslashadi. Menning ham bugungacha erishgan yutuqlarimning barida ustozlarimning hissasi bor, deb bilaman. Masalan, Abduboriy Tasxajayev, aka-uka Ravshan va To‘lqin Matkarimovlar, marhum Ixtiyor aka va boshqalar. Ulardan olgan bilim va ko‘nikmalarim sabab bugun men yoshlarga ish o‘rgatishda qiynalmayman. Ertaga meniyam kimdir ustozim shu odam deb e’tirof etsa boshim osmonga yetadi. Shu sabab har bir yigitga o‘z farzandimga qaraganday qarayman, hech biridan tajribalarimni qizg‘onmayman, hech birining savolini javobsiz qoldirmayman.

Dilshod Boltayev shaxsiy hayotda ham ko‘pchilikka namuna. Uch farzandning otasi. Farzandlaridan biri DXX chegara qo‘shinlarida harbiy xizmatchi. Qahramonimiz a’lo darajadagi xizmatlari sabab shu yil avgust oyida III darajali serjant unvoni bilan taqdirlandi. Bundan tashqari, Uchtepda tumani, Sakkokiy ko‘chasida qad rostlagan yangi turar joylardan ikki xonali uy imtiyozli kredit asosida taqdim etildi. Bunday imkoniyatlar nafaqat bir xodimni ishga g‘ayratini oshiradi, balki boshqa xodimlarni ham ana shunday fidoyi bo‘lishga ruhlantiradi. Dilshod Boltayev kabi kasbga sadoqatli insonlar bor ekan FVV tizimida yana ko‘plab professionallar yetishishi shubhasiz.

Yulduz O‘RMONOVA,
“Vaziyat” muxbiri

E’tibor va qo‘llab-quvvatlash



Bugungi kunda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi, bandligini ta’minlash hamda bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Sirdaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tomonidan ham yoshlar bilan ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, ularning muammolarini o‘rganish va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilayotir.

Jumladan, viloyat FVB boshlig‘i, polkovnik Xurshid Sadirov tomonidan hududlarda “Rahbar va yoshlar” uchrashuvlari muntazam o‘tkazib borilishi mana shunday e’tibor namunasidir.

Shu kabi uchrashuvlardan biri Oqoltin tumani “Mustaqillik” MFY hududida joylashgan 1-sonli texnikumda tashkil etildi. Unda o‘quvchi yoshlarning muammolari, taklif va tashabbuslari tinglanib, ularni qiynayotgan masalalar yuzasidan ochiq va samimiy muloqot olib borildi. Suhbat davomida yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligini ta’minlash, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, sport bilan shug‘ullanishlari uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanish hamda yoshlar o‘rtasida vatanparvarlik ruhini yanada kuchaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, yosh avlodning favqulodda vaziyatlarning oldini olish, yong‘in va boshqa turdagi xavf-xatarlardan himoyalanish borasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish masalalari ham muhokama qilindi. Fuqarolar xavfsizligini ta’minlashda yoshlarning faol ishtiroki muhim ekani ta’kidlandi.

“Rahbar va yoshlar” uchrashuvlari viloyatning boshqa hududlarida ham davom ettirildi. Jumladan, Shirin shahrida bo‘lib o‘tgan samimiy muloqot davomida yoshlarni qiynayotgan masalalar, ularning sifatli ta’lim olishi, zamonaviy kasb-hunarlarni egallashi, bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishi, o‘z iqtidori va salohiyatini namoyon etishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida fikr almashildi. Uchrashuvda yoshlar o‘zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilib, taklif va tashabbuslarini bildirdilar. Bildirilgan har bir fikr e’tiborga olinib, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yuzasidan zarur choralar belgilab olindi.

Yoshlarning bandligini ta’minlash masalasi ham e’tibordan chetda qolmadi. Xususan, Sayxunobod tumanida ish bilan band bo‘lmagan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularni munosib ish o‘rinlari bilan ta’minlash va bandligini oshirish maqsadida “Mehnat yarmarkasi” tashkil etildi. Mazkur tadbirda hududdagi korxona va tashkilotlar tomonidan mavjud bo‘sh ish o‘rinlari yoshlar e’tiboriga havola qilindi. Ishtirokchilarga ishga joylashish tartibi, mavjud vakansiyalar, mehnat munosabatlari hamda ish beruvchilar tomonidan taqdim etilayotgan imkoniyatlar haqida zarur ma’lumotlar berildi. Yoshlar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga mas’ul xodimlardan javob olish asnosida, ish beruvchilar bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatiga ham ega bo‘ldilar.

Davronbek SULAYMONOV,
Sirdaryo viloyati FVB Axborot xizmati rahbari, kapitan

Mahalla xavfsizligining faol targ‘ibotchilari

Yoshlar bilan ishlashda asosiy e’tibor, avvalo, ularning muammolarini o‘rganish, qiziqish va imkoniyatlarini aniqlash hamda hayotda munosib o‘rin egallashiga ko‘maklashishga qaratilmoqda. Ayniqsa, bandligi ta’minlanmagan yoshlarni aniqlab, ularni ishga joylashtirish, kasb-hunar o‘rganishga yo‘naltirish orqali kelajakka bo‘lgan ishonchini mustahkamlash muhimdir.

FVV xodimlarining mahallalarga biriktirilishi yoshlar bilan manzilli va tizimli ishlash imkonini bermoqda. Yoshlar bilan muntazam suhbatlar o‘tkazilib, ularning muammolari tinglanmoqda, mavjud imkoniyatlar tushuntirilmoqda. Mehnat qilishga, kasb egallashga va o‘z ustida ishlashga intilayotgan yoshlarga amaliy ko‘mak ko‘rsatish orqali ularning jamiyatdagi faolligini oshirishga xizmat qilinmoqda.

Yoshlar tarbiyasida xavfsizlik madaniyatini shakllantirish ham muhim o‘rin tutadi. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish, yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, tabiiy va texnogen xususiyatdagi xavf-xatarlar yuzaga kelganda to‘g‘ri harakat qilish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish yoshlarning nafaqat o‘z hayoti, balki atrofdagilar xavfsizligiga ham mas’uliyat bilan qarashiga yordam beradi. Ayniqsa, yoshlar o‘rtasida beparvolik va loqaydlikning oldini olish, ularda hushyorlik, intizom, jasorat va mas’uliyat kabi fazilatlarni shakllantirish zarur. Chunki favqulodda vaziyatlarda inson hayotini saqlab qolishda bir necha daqiqalik to‘g‘ri qaror ham katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Mahalla, oila va mutasaddi tashkilotlarning hamkorligi yoshlar tarbiyasida muhim natijalarni beradi. Har bir yoshning muammosiga befarq bo‘lmaslik, uni tinglash va to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish orqali kelajak uchun mustahkam poydevor yaratiladi. Bugungi yosh – ertangi mutaxassis, fidoyi xodim, faol fuqaro. Ularning bilimli, tarbiyali, mehnatsevar va vatanparvar bo‘lib voyaga yetishi jamiyatimiz taraqqiyotining muhim shartidir.

Hafta mobaynida, shuningdek, Xonqa tumani FVB xodimlariga biriktirilgan og‘ir toifadagi 8 nafar yoshlar holidan xabar olinib, profilaktik uchrashuvlar olib borildi.

Rasulbek QADAMBOYEV,
Xonqa tumani FVB boshlig‘i o‘rinbosari, kapitan

Yoshlar bandligi – jamiyat taraqqiyotining muhim omili

Favqulodda vaziyatlar vazirining tegishli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida Surxondaryo viloyatida ham yoshlar bilan ishlash, ularning bandligini ta’minlash va mehnat bozoridagi imkoniyatlari haqida xabardorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar izchil tashkil etilmoqda. Bu borada Favqulodda vaziyatlar bo‘limlari xodimlari Bandlik bo‘limi mutaxassislari bilan hamkorlikda yoshlar bilan uchrashuvlar, ochiq muloqotlar va mehnat yarmarkalarini o‘tkazmoqda.



Ana shunday tadbirlardan biri Sariosiyo tumanining “Madankon” mahallasida tashkil etildi. Unda hudud yoshlari bilan uchrashuv o‘tkazilib, ish bilan ta’minlanish istagini bildirgan fuqarolarga mavjud bo‘sh ish o‘rinlari haqida batafsil ma’lumotlar berildi. Uchrashuv davomida yoshlarning murojaat va takliflari tinglanib, ularni o‘z qiziqishi, bilimi va imkoniyatlariga mos kasb hamda ish faoliyatiga yo‘naltirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Mehnat yarmarkasining muhim jihati shundaki, unda ish izlayotgan fuqarolar bir vaqtning o‘zida bir nechta tashkilot va korxonalarda mavjud bo‘sh ish o‘rinlari haqida ma’lumot olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ish beruvchi va ish izlovchi o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni yo‘lga qo‘yish, mavjud imkoniyatlarni tushuntirish va fuqarolarning ishga joylashish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi.

Muzrabot tumanida ham yoshlar bandligini ta’minlashga qaratilgan ana shunday amaliy ishlar davom ettirildi. Tuman hokimligi binosida “Otaliqqa olingan” hamda ishsiz yoshlar ishtirokida ochiq muloqot tarzida mehnat yarmarkasi o‘tkazildi. Mehnat yarmarkalarida ish beruvchilar tomonidan taklif etilayotgan bo‘sh ish o‘rinlari bilan tanishish yoshlar uchun muhim imkoniyatdir. Ayrim yoshlar o‘z hududida qanday ish o‘rinlari mavjudligi, qaysi tashkilotlarda mutaxassislarga ehtiyoj borligi yoki ishga kirish uchun qanday hujjatlar talab etilishi haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lmasligi mumkin. Bunday tadbirlar esa ana shu axborot bo‘shlig‘ini to‘ldirishga yordam beradi. Shuningdek, ish izlayotgan fuqarolarga mehnat munosabatlari, ish beruvchi va xodimning huquq hamda majburiyatlari, mehnat shartnomasini rasmiylashtirish, qonunchilikda belgilangan kafolat va imtiyozlar haqida tushuntirish berilishi ham muhimdir. Chunki qonuniy mehnat munosabatlari xodimning huquqlarini himoya qilish, uning mehnat stajini shakllantirish va kelgusidagi ijtimoiy kafolatlarini ta’minlashga xizmat qiladi. Yoshlarni bandlikka yo‘naltirish jarayonida ularning qiziqishlarini hisobga olish ham muhim.

Surxondaryo viloyatida o‘tkazilayotgan bunday tadbirlar Favqulodda vaziyatlar tizimi xodimlarining yoshlar bilan ishlash borasidagi vazifalari doirasida ham muhim o‘rin tutadi. Chunki yoshlar bilan muntazam muloqot qilish, ularning muammolarini o‘rganish va jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash profilaktik ishlarning samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Bandligi ta’minlangan, kelajakka aniq maqsad bilan intilayotgan yoshlarning ijtimoiy faolligi ham yuqori bo‘ladi.

Jahongir QOSIMOV,
Surxondaryo viloyati FVB Axborot xizmati boshlig‘i, kapitan

MAYDONDA MAHORAT, xizmatda fidoyilik

Sport bilan jiddiy shug‘ullangan har bir inson bir narsani juda yaxshi biladi: g‘alaba osonlikcha kelmaydi, u ma-shaqqatli mashqlar, ketma-ket jarohat-lar, temir intizom, qat’iy iroda va ulkan sabr-toqat evaziga qo‘lga kiritiladi. Ana shu sifatlar – nafaqat sport maydonida, balki xavfli va mas’uliyatli kasbda ham hamisha zarur bo‘ladi.







Buxoro viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi “Muborak” NGQCHB 21-qutqaruv qismi boshlig‘i o‘rinbosari, kapitan Mirg‘olib Sharipov – sport bilan xizmatni uyg‘unlashtirgan, ikkala sohada ham muvaffaqiyatga erishgan insonlardan biri.

Mirg‘olib Sharipov 1993-yil 26-martda Buxoro viloyati Vobkent tumanida dunyoga kelgan. 1999–2008-yillarda tumandagi 3-maktabda tahsil olgan bo‘lajak sportchi va qutqaruvchi, maktab davridayoq sport bilan yaqindan tanishgan edi. 2008–2011-yillarda Vobkent tuman Pedagogika kollejining jismoniy tarbiya yo‘nalishida o‘qishni davom ettirgan, so‘ngra 2011–2015-yillarda Buxoro davlat universitetining jismoniy madaniyat fakultetini muvaffaqiyatli tamomlagan. Aynan shu yillarda uning kelajakdagi kasbiy tanlovi va sportdagi yo‘li shakllana boshlagan.

Xizmat faoliyatini u 2016-yilda Buxoro viloyati Ichki ishlar boshqarmasi, Yong‘in xavfsizligi boshqarmasi harbiylashtirilgan yong‘in o‘chirish qismida safdor yong‘in o‘chiruvchi lavozimida boshlagan. Halol va fidokorona mehnati e’tibordan chetda qolmadi. 2018-yil sentabr oyida u Buxoro viloyati “Muborak” NGQCHB 22-harbiylashtirilgan yong‘in o‘chirish qismida smena boshlig‘i lavozimiga tayinlandi. Keyingi bosqich esa 2023-yil mart oyida yuz berdi. Bu ham katta ishonch namunasi edi. Mirg‘olib “Muborak” NGQCHB obyektlarda FV bo'limi 21-qutqaruv qismi boshlig‘i o‘rinbosari lavozimiga tayinlandi va bugungi kunda ham shu mas’uliyatli vazifada sidqidildan xizmat qilib kelmoqda.

Mirg‘olib Sharipovning sportga kirib kelishi maktab yillaridan boshlangan. U sportning voleybol turi bilan murabbiy Farhod Mirzoyev qo‘l ostida mashg‘ulotlarda qatnashgan. Yillar davomida to‘plangan mashq va tajriba o‘z samarasini bera boshladi: 2011-yilda “Barkamol avlod – 2011” musobaqalarida Surxondaryo viloyatida Buxoro viloyati terma jamoasi tarkibida 3-o‘rinni qo‘lga kiritdi. 2013-yilda esa Buxoro shahrida o‘tkazilgan universiada musobaqalarida yana Buxoro viloyati terma jamoasi safida 3-o‘ringa sazovor bo‘ldi.

Sportchi sifatidagi mashg‘ulotlar keyinchalik xizmat faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda davom etdi. 2016–2018-yillarda Buxoro “Dinamo” sport musobaqalarida Buxoro Ichki ishlar boshqarmasi terma jamoasi tarkibida 2-o‘rinni egalladi. Bular, albatta, o‘z o‘rnida va o‘z vaqtida nihoyatda faxrli natijalar edi. Qahramonimiz keyinchalik Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tizimiga o‘tgach ham sportdan uzoqlashmadi. Aksincha, uning marraga intilishlari kuchaydi, natijalari yanada yuksaldi: 2021–2025-yillarda Buxoro viloyati “Dinamo” musobaqalarida Buxoro viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi terma jamoasi tarkibida ketma-ket besh yil davomida faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Bu nafaqat shaxsiy mahoratning, balki barqaror intizom va mashqqa sodiqlikning ham yorqin ko‘rsatkichidir.

Eng yuqori yutuqlaridan biri esa 2025–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vaziri kubogi musobaqasida qo‘lga kiritildi. Buxoro viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi jamoasi bu nufuzli musobaqada faxrli 1-o‘rinni egalladi. Bu g‘alaba nafaqat Mirg‘olibning sportdagi shaxsiy yutug‘i, balki butun viloyat jamoasining mashaqqatli mehnati va uyushqoqligining natijasi bo‘lgan edi.

FVV tizimida ishlashni tanlashining asosiy sababi haqida so‘raganimizda, samimiylik bilan shunday javob berdi: “Insonlar hayoti va mol-mulkini himoya qilish, qiyin vaziyatlarda odamlarga yordam berish va jamiyat xavfsizligiga o‘z hissamni qo‘shish istagi meni shu sohaga yetakladi. Bu sohada intizom, jasorat, mas’uliyat va jamoaviylik naqadar muhimligini juda yaxshi tushunaman. O‘zimda ana shunday qat’iy irodani tarbiyalay olganimdan cheksiz baxtiyorman”. U FVV tizimida bilim va qobiliyatlarini muntazam ravishda rivojlantirib, Vatanga halol va sidqidildan xizmat qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Nazariy bilim va sport orqali chiniqqan jismoniy tayyorgarlik amaliyotda ham o‘zining munosib samarasini berdi. Qism joylashgan hududda yong‘in sodir bo‘lgan paytlarning birida Mirg‘olib bevosita qutqaruv jarayonida faol ishtirok etgan. “Avvalo, odamlarni xavfsiz joyga chiqarishga yordam berdim, so‘ngra yong‘inning tarqalishi oldini olish choralarini ko‘rib, uni zudlik bilan o‘chirish, xavfni bartaraf etishga o‘z hissamni qo‘shdim”, deb eslaydi u o‘sha kunlarni. Bunday vaziyatlarda tezkorlik va sovuqqonlik bilan harakat qilish – aynan sport orqali shakllangan xarakter xususiyatlarining amaliy ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘lgan edi.

Har qanday mutaxassisning shakllanishida unga yo‘l ko‘rsatgan ustozlarning o‘rni beqiyos. Mirg‘olib Sharipov o‘ziga xizmat davomida ustozlik qilgan insonlar sifatida G‘olib Rashidov, Azim G‘ulomov va Sarvar Rahimovni alohida ehtirom va chuqur hurmat, e’zoz bilan tilga oladi. “Ustozlarimdan xizmat davomida intizom, mas’uliyat, tezkorlik va favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilishni fuqarolar hayoti va xavfsizligini doimo birinchi o‘ringa qo‘yish kerakligini aynan u kishilardan o‘rgandim”, deydi. Ustozlaridan olgan saboqlar uning kelajakdagi xizmat faoliyatida katta ahamiyat kasb etishini alohida ta’kidlaydi.

Suhbat so‘nggida qarhamonimizning kelgusi yillar uchun maqsad va rejalari haqida so‘raganimizda, qahramonimiz aniq va lo‘nda javob berdi: “FVV tizimida o‘z vazifamni halol, vijdonan va mas’uliyat bilan bajaradigan malakali xodim bo‘lishni istayman. Ayrimlar bir ish qilganda “o‘zini ko‘rsatdi” deb baholashadi. Yo‘q, bu xatо emas. Inson o‘z ishlari, yutuqlari, qahramonligini hamisha o‘z qo‘mondoniga, boshlig‘iga, otasi, onasiga, farzandlariga, boshqa yaqinlariga ko‘rsatishi kerak. Qilgan ishlarni, yutuqlarni ko‘rsatish faqat yaxshi natija beradi. Men bu sohadagi yoshlarga, atrofimdagi tajribasiz mutaxassisilarga aynan shu so‘zni, shunday yo‘l tutishni takrorlayman. Axir yutug‘i, qilgan ishi bor odamgina shu yutuqlari bilan boshqalarga namuna bo‘la oladi.

O‘zim esa xizmat davomida bilim va tajribamni muntazam oshirib, qutqaruv ishlarida yanada professional, yanada tezkor, yanada betakror bo‘lishni maqsad qilganman. Axir hech bir hodisa bir-birini takrorlamaydi, bizning yordamimiz ham bir-biriga o‘xshamaydi. Ustozlarimdan o‘rgangan bilimlarim, tajribalarimni amaliyotda qo‘llab, fuqarolarning hayoti va xavfsizligini himoya qilishga munosib hissa qo‘shish – mening asosiy va birlamchi maqsadim. Kelajakda xizmatda juda-juda yuqori natijalarga erishib, ustozlarim va rahbariyat ishonchini yuksak darajalarda oqlashni, o‘z ortimdan nainki O‘zbekiston, dunyoning millionlab qutqaruvchilarini ergashtirishni, ularning havasini keltirishni, ular uchun ideal bo‘lishni reja qilganman. Axir bu orzuning hech ham yomon yeri yo‘q, singlim”.

Asli sport maydonida qo‘lga kiritilgan g‘alabalar, ketma-ket besh yil davomida saqlab qolingan chempionlik unvoni va xizmatdagi fidokorlik – bularning barchasi bir-biriga chambarchas bog‘liq. Sport insonga faqat jismoniy kuch emas, balki irodani ham beradi, xizmat esa bu irodani insonlar farovonligi yo‘lida ishga solish imkonini berishiga shu qahramonimiz hikoyalari orqali yana bir bor guvoh bo‘ldik. Chindan ham, inson o‘z kelajagini o‘zi yaratadi.

Mirg‘olib Sharipov kabi xodimlar aynan shu ikki sifatni – sportchining jasoratini va qutqaruvchining mas’uliyatini o‘zida uyg‘unlashtirgan insonlar sifatida yosh avlodga munosib ibrat bo‘la oladi.

Gulnora SHERMATOVA,
“Vaziyat” muxbiri

Bugungi kunda neftni qayta ishlash zavodlari davlatning eng strategik va yong‘in jihatidan eng yuqori xavf guruhiga kiruvchi obyektlari hisoblanadi. Millionlab tonna tez yonuvchi uglevodorodlar, yuqori bosim va o‘ta yuqori harorat ostida ishlovchi ushbu majmualarda kichik bir texnik nosozlik zanjirli reaksiyani keltirib chiqarishi mumkin.



KRITIK XAVF-XATARLARNI JILOVLASH VA BARQARORLIK

Bunday hududlardagi yong‘inlar oddiy ko‘ngilsizlik emas, balki butun boshli ishlab chiqarish korxonasidagi minglab insonlar hayotiga daxl qiluvchi va global ekologik fojiaga sabab bo‘luvchi ulkan tahdiddir. Shu bois, strategik korxonalarda yong‘ining mutloq oldini olish va raqamli transformatsiyani amalga oshirish hayotiy zaruriyat hisoblanadi.

Neft sanoatida xavfsizlik choralarini avtomatlashtirish obyekt daxlsizligini ta’minlashning eng samarali yo‘lidir. Zamonaviy dasturiy muhandislik ishlanmalari bu yerda ko‘rinmas va o‘ta hushyor nazoratchi vazifasini bajaradi.

Maxsus infraqizil kameralar (optik gaz analizatorlar) havoda xavfli bug‘lar to‘planganini inson sezgi organlari sezishidan ancha oldin aniqlaydi. Bu olov zanjirining birinchi halqasini uzish imkonini beradi.

Algoritmlar neft mahsulotlari quvurlari va sig‘imlardagi harorat o‘zgarishini millisekundlarda tahlil qiladi. Tizim odam ko‘zi bilan ko‘rib bo‘lmaydigan qizishni payqab, avariya xavfi haqida muhandislarni oldindan ogohlantiradi.

Ilg‘or texnologiyalar korxonani halokatli oqibatlardan asrovchi asosiy qalqondir. Favqulodda vaziyatlar va yong‘in xavfsizligini ta’minlashga beparvolik bilan qarash butun sanoat obyektining kulga aylanishiga va ishlab chiqarishning butunlay to‘xtab qolishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli, zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlarni o‘rnatish oddiy xohish yoki texnik yangilanish emas, balki ishlab chiqarish obyektlarida kutilmagan halokatli vaziyatlarning oldini oluvchi va korxonaning barqaror faoliyatini ta’minlovchi hayotiy zaruriyatdir. Innovatsion muhandislik tizimlari va to‘g‘ri profilaktika choralari uyg‘unligi sanoat korxonalarini yong‘in xavfidan bir qadam oldinda yurishini ta’minlaydi.

N. EGAMBERDIYEV,
Buxoro viloyati FVB BNQIZ OFVB FVPB katta inspektori, kapitan

VOLONTYORLAR – AHOLI XAVFSIZLIGI YO‘LIDA *muhim ko‘makchi*



Samarqand viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi volontyorlari uchun FVV Akademiyasi Malaka oshirish markazi bilan hamkorlikda suv havzalarida baxtsiz hodisalarning oldini olish, yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etish hamda favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri va tezkor harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan nazariy va amaliy o‘quv mashg‘uloti o‘tkazildi.



Mashg‘ulotdan ko‘zlangan asosiy maqsad volontyorlarning favqulodda vaziyatlarning oldini olish borasidagi bilimlarini oshirish, suv havzalarida fuqarolar xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan profilaktik ishlarni samarali tashkil etish hamda zarur vaziyatlarda jabrlanganlarga tezkor yordam ko‘rsatish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlashdan iborat bo‘ldi.

Nazariy mashg‘ulotlar davomida volontyorlarga suv havzalarida xavfsizlik qoidalariga qat’iy rioya qilish, cho‘milish uchun mo‘ljallanmagan joylarda suvga tushmaslik, bolalarni suv havzalari yaqinida nazoratsiz qoldirmaslik, suvda baxtsiz hodisalarning oldini olish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar batafsil tushuntirildi.

Shuningdek, suvda cho‘kish holati yuz berganda vaziyatni to‘g‘ri baholash, jabrlanuvchini xavfsiz tarzda qutqarish, favqulodda vaziyatlar vaqtida sarosimaga tushmasdan harakat qilish, tezkor xizmatlarga xabar berish va jabrlangan shaxsga birinchi yordam ko‘rsatish tartibi bo‘yicha zarur bilimlar berildi.

O‘quv mashg‘ulotining amaliy qismida esa volontyorlar olgan nazariy bilimlarini amaliy mashqlar orqali mustahkamladilar. Jumladan, suvda yordamga muhtoj bo‘lgan shaxsni qutqarish, uni xavfsiz hududga olib chiqish, jabrlanuvchining holatini baholash hamda zarur hollarda birinchi yordam ko‘rsatish bo‘yicha amaliy topshiriqlar bajarildi.

– Ushbu mashg‘ulot men uchun juda foydali va muhim bo‘ldi, – deydi Samarqand viloyati FVB volontyori Gulmera Eshmamatova. – Ayniqsa, suv havzalarida xavfsizlikni ta’minlash, xavfli vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish va jabrlanganlarga birinchi yordam ko‘rsatish bo‘yicha olgan bilimlarimizni amaliy mashqlar orqali mustahkamladik. Menimcha, volontyor sifatida bizning asosiy vazifalarimizdan biri — o‘rganganlarimizni faqat o‘zimiz bilib qolmasdan, amaliyotda fuqarolarga ham tushuntirishdir. Aholi, ayniqsa, yoshlar va bolalar o‘rtasida suv havzalaridagi xavfsizlik qoidalarini targ‘ib qilish orqali ko‘plab baxtsiz hodisalarning oldini olishimiz mumkin. Kelgusida volontyorlar safi yanada kengayib, bunday foydali mashg‘ulotlarda ko‘proq yoshlar ishtirok etishini istardim. Chunki qancha ko‘p volontyor aholiga xavfsizlik qoidalarini tushuntirsa, favqulodda vaziyatlarning oldini olishga shuncha katta hissa qo‘shiladi.

Bundan tashqari, yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etish, yong‘in kelib chiqishining oldini olish, yong‘in sodir bo‘lganda fuqarolarni xavfsiz hududga evakuatsiya qilish va dastlabki choralarni ko‘rish masalalariga ham alohida e’tibor qaratildi.

Mashg‘ulot davomida volontyorlar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislardan javob olib, turli favqulodda vaziyatlarda aholiga to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, xavf-xatarlarni oldindan aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha amaliy tavsiyalarga ega bo‘ldilar.

Bugungi kunda favqulodda vaziyatlarning oldini olishda nafaqat mutaxassislar, balki jamoatchilik vakillari, xususan, faol volontyorlarning ham o‘rni katta. Volontyorlarning aholiga xavfsizlik qoidalarini yetkazishi, xavfli holatlar yuzaga kelishining oldini olishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarida faol ishtirok etishi fuqarolar xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday o‘quv mashg‘ulotlari volontyorlarning bilim va malakasini oshirish bilan birga, aholining hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish, suv havzalarida baxtsiz hodisalarning oldini olish hamda favqulodda vaziyatlarda tezkor va to‘g‘ri harakat qilishga tayyorgarligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Eng muhimi, o‘z bilim va ko‘nikmalarini amaliyotda aholiga yetkazishga tayyor bo‘lgan volontyorlar safining kengayishi yurtimizda xavfsizlik madaniyatini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shadi.

Ilhom BOQIYEV,
Samarqand viloyati FVB Axborot xizmati boshlig‘i, kapitan

DISPETCHERLIK – HAR SONIYA UYG‘OQMAN DEGANI



Tasavvur qiling: tashqarida qor bo‘ralab yog‘yapti. Shamol ham zabtiga olgan. Bunday havoda har qanday odam ham issiqqina uyida qaynoqqina qahvani ho‘plab, televizor ko‘rib yoki kitob o‘qib o‘tirishni xohlaydi. Biroq men va hamkasblarim har qanday sharoitda ham o‘ziga qulay muhitni yaratishni emas, bedorlikni tanlaymiz. Chunki ishimiz shu. Bu har narsaning yomon tomonini o‘ylash degani emas, yo‘q, har qanday vaziyatda ham o‘z manfaatidan boshqalar manfaatini, tinchligini, xotirjamligini birinchi o‘ringa qo‘yish deganidir.

Men ana shunday bedorlikni, hushyorlikni o‘ziga kasb qilib olgan yong‘in o‘chiruvchilar xonadonida dunyoga keldim. Bolaligimdan dadam kiygan formaga havas bilan qaraganimni sezgan onam: “Qiz bola degani boshqacharoq sohalarga havas qiladi. Sen o‘g‘il bola emassan-ku, qizim”, derdilar xavotirlanib. Men esa dadam ishga otlangan paytlari ergashib ishxonasiga birga ketar, kun bo‘yi ortidan pildirab yurganim-yurgan edi.

Otam butun umrini yong‘indan himoya qilish tizimida xizmat qilishga bag‘ishlagan va turli lavozimlarda ishlagan. U o‘z faoliyatini Oliy yong‘in-texnika maktabining Jismoniy va jangovar tayyorgarlik kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari lavozimida yakunlagan (hozirda bu FVV Akademiyasi).

Otam yong‘in-qutqaruv sporti bo‘yicha sport ustaligiga nomzod, murabbiy edi. Otamning ishxonasidagi har bir narsa: ulkan stadion ham, yugurish va tennis o‘ynash imkoniyatlari ham menga juda yoqardi. Shunday odamning qizi ekanimdan juda faxrlanardim. Jangovarlik sportchiga xos muhit, doimiy harakat va odamlarning jipsligi menga o‘zgacha kuch-quvvat va shijoat bag‘ishlardi. Ehtimol, aynan o‘shanda menda sport bilan, ayniqsa, yengil atletika bilan professional shug‘ullanish istagi paydo bo‘lgandir.

Onam esa bolalar bog‘chasida tarbiyachi bo‘lib ishlagan. “Qiz bola uchun eng yaxshi kasb tarbiyachi va o‘qituvchilikdir”, deya har qancha tayinlasalar-da, mening butun xayolim qutqaruvchilar haqidagi filmlarda, ular ko‘rsatgan qahramonlik va jasoratli ishlarni kuzatish bilan band edi. Bo‘sh qoldim deguncha dadam bilan yong‘in qutqaruv brigadasi olib borgan ishlar haqida suhbatlashar, favqulodda vaziyatlarda har qanday mashaqqatni yengib, odamlarga yordam qo‘lini cho‘zgan insonlarning har bir xatti-harakati va yurish-turishini katta qiziqish bilan kuzatardim. Fidoyilikni kasb qilib olgan bu o‘ziga xos dunyo odamlarining asl shogirdi, izdoshi bo‘lish ishtiyoqida o‘sib-ulg‘aydim.

– Sen tanlagan soha odamlari har soniyada uyg‘oq bo‘lishni o‘zlariga shior qilib olgan fidoyilardir, agar sen bu sohaga o‘z rohat-farog‘atingni o‘ylab qadam qo‘ysang, qattiq adashasan, – derdi dadam. – Chindan shunday ekan. O‘z faoliyatim davomida ana shunday benazir insonlar bilan hamnafas bo‘lib ishlab kelganimdan faxrlanaman. Davlatimiz rahbari tomonidan topshirilgan mukofot – “Shuhrat” medali ham menga emas, sutkasiga 24 soat ishlaydigan jamoamizga berilgan mukofotdir. Chunki dispetcherlik xizmati – bu jamoaviy ish. Biz bir-birimizni so‘zsiz tushunadigan, bir zanjirning mustahkam bo‘g‘inlariga aylangan jamoamiz.

Favqulodda vaziyatlar degani shunday bir jarayonki, unda zanjirdagi har bir halqaning bevosita ishtiroki, hushyorligi, topqirligi va bilimi talab etiladi. Bu mukofot men uchun kutilmagan, ammo juda hayajonli va sharafli voqea bo‘ldi. Mukofotni topshirish jarayonida qalbimda cheksiz faxr va minnatdorlik tuyg‘usi kechdi. Kamtarona mehnatim davlatimiz tomonidan shunchalik yuqori baholanganidan to‘lqinlandim. O‘sha lahzalarda yillar davomida chekkan zahmatim, tungi navbatchiliklar va mas’uliyatli daqiqalar ko‘z oldimdan o‘tdi. Ish jarayonida biz jamoamiz bilan bir oilaning a’zolariga aylanamiz. Vaziyat qanchalar mashaqqatli bo‘lmasin birgina to‘g‘ri qaror asosidagi hamkorlik tuyg‘usi, bir-birini anglash va hurmat qilish tuyg‘usi eng yaxshi yechimni bizga tortiq etadi. Va eng muhimi hamkasblarimning barchasi vatanparvar insonlar. Shu o‘rinda ustozlarim – Qoraqalpog‘iston FVBB boshlig‘i polkovnik Renat Shafiyev, Chilonzor tumani FVB 12-qism guruh komandiri kichik serjant Rustam Pirmaxanov hamda Yunusobod tumani FVB 17-qism boshlig‘i mayor Sunnat Adabayevlarga o‘z minnatdorligimni bildirib o‘tmoqchiman.

To‘g‘ri, men shoir emasman, lekin Vatan haqida so‘z ketganida yuragim hayajondan hapqirib ketadi. Men uchun Vatan – onaning duosi, oilaning tinchligi, ertalab xotirjam uyg‘onish va qilayotgan mehnatingiz elingga, yurtingga foyda keltirayotganini his qilishdir. Har bir inson o‘z kasbiga vijdonan yondashib, o‘z o‘rnida mas’uliyatni his etsa, mana shu Vatanga bo‘lgan haqiqiy muhabbatdir.

Garchi tarix darslarida, kinolarda ko‘rgan bo‘lsam-da, mustaqilligimiz osonlikcha qo‘lga kiritilmaganini juda yaxshi his qilaman. Ayniqsa, bu kurashlarda o‘ziga xos o‘rin egallagan jadid ayollarning sa’y-harakatlari, intilishlari, bilim va ishtiyoqidagi jasoratlari meni hamisha hayratlantirgan.

Yaqinda kitob do‘konlarining birida O‘zbekiston xalq shoiri Sharifa Salimovaning “Qabohat saltanati yoxud qor ostida qolgan lolalar” deb nomlangan she’riy romanini ko‘rib qoldim. Men ismlarini eshitgan millat qahramonlari haqida yozilgan asar ekan. Darhol sotib oldim. O‘zbek jadid ayollarining mulohazalari, ular yurtimizda amalga oshirmoqchi bo‘lgan ishlarning ta’riflarini o‘qib lol qoldim. Bu ayollar faqat va faqat millat ravnaqi va ertasi uchun jon kuydirgan, kurashgan, o‘z jonini fido qilgan. Hamkasblarimga ham ushbu asarni o‘qib chiqishni tavsiya qildim. Dispetcherlikdagi bedorliklarni mutolaa bilan yengishga harakat qilaman. Badiiy asarlar mening eng yaxshi hamrohimdir.

Dadam bolaligimda “Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar” degan maqolni ko‘p aytardilar. Ayni maqol bizning sohamiz insonlari uchun juda mos keladi. Menimcha, umrimizning har oni har birimiz uchun g‘animat va favqulodda vaziyatlar kabi kutilmagan voqeliklarga to‘ladir. Shunday ekan ona-Vatanimiz kelajagi ham har birimizning to‘g‘ri qaror qabul qilishimiz va harakat qilishimiz bilan chambarchas bog‘liqdir. Men kitobxon va bilimli bolalar ko‘payishini orzu qilaman. Tilagim, yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, mustaqilligimiz abadiy bo‘lsin!

Toshkent shahar FVBB markazi katta navbatchi dispetcheri, “Shuhrat” medali sohibasi Albina Bariyevaning dil so‘zlarini Muxtasar Tojimamatova yozib oldi.

PAXTA MAVSUMI – MAS’ULIYATLI DAVR

Bu jarayonda yong‘in xavfsizligi talablariga qat’iy rioya qilish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday holatlarga tezkor tayyorgarlik ko‘rish muhim ahamiyat kasb etadi.



PROFILAKTIKA

Shu maqsadda Piskent tumanidagi paxta qabul qilish punktida Toshkent viloyati FVBB mas’ul xodimlari tomonidan profilaktik tadbir tashkil etildi.

Tadbir davomida paxta qabul qilish va saqlash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar shartli ravishda modellashtirilib, xodimlarning bunday holatlardagi harakatlari sinovdan o‘tkazildi.

Xususan, shartli yong‘in yuzaga kelgan taqdirda uni tezkor aniqlash va xabar berish, ishchi-xodimlarni xavfsiz hududga evakuatsiya qilish, yong‘in-qutqaruv kuch va vositalarini jalb etish hamda yong‘inni dastlabki bosqichda bartaraf etish bo‘yicha amaliy mashqlar bajarildi.

Mas’ul xodimlarning o‘zaro hamkorligi, harakatlarning izchilligi va favqulodda vaziyatga tayyorgarlik darajasiga alohida e’tibor qaratildi.

Ta’kidlash joizki, paxta qabul qilish punktlarida yong‘in xavfsizligini ta’minlash nafaqat moddiy boyliklarni asrash, balki insonlar hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishning ham muhim shartidir. Shu bois mavsum davomida yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etish, texnika va elektr qurilmalaridan to‘g‘ri foydalanish, hududda tegishli yong‘inga qarshi vositalarning shay holatda bo‘lishini ta’minlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Piskent tumanida o‘tkazilgan mazkur tadbir ham paxta mavsumini xavfsiz va uyushqoqlik bilan o‘tkazish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarga tezkor javob qaytarish bo‘yicha amaliy tayyorgarlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Javlon HOKIMJONOV,
Toshkent viloyati FVBB axborot xizmati boshlig‘i

Talabalar
ISHTIROKIDA O‘QUV MASHQI

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini imkon qadar tez va samarali bartaraf etish, eng muhimi, inson hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish favqulodda vaziyatlar organlari oldidagi ustuvor vazifalardan biridir. Bunday vaziyatlarda tezkor va to‘g‘ri harakat qilish esa muntazam tayyorgarlik hamda amaliy mashg‘ulotlarni talab etadi.



Shu maqsadda Navoiy viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i, polkovnik G‘ayrat Eshonov rahbarligida Navoiy davlat universiteti talabalar yotoqxonasida maxsus-taktik o‘quv mashqi tashkil etildi.

Mashg‘ulotning asosiy maqsadi: talabalar yotoqxonasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarni tezkorlik bilan aniqlash, kuch va vositalarni voqea joyiga safarbar etish, jabrlanganlarni qutqarish hamda favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha amaliy harakatlarni takomillashtirishdan iborat bo‘ldi. O‘quv mashqi davomida favqulodda vaziyat sharoitida xizmatlarning o‘zaro hamkorligi, boshqaruv va muvofiqlashtirish jarayonlari amaliy jihatdan sinovdan o‘tkazildi.

Qutqaruvchilar tomonidan maxsus texnika va jihozlardan foydalangan holda shartli jabrlanganlarni xavfsiz hududga olib chiqish, balandlikda qutqaruv ishlarini amalga oshirish, jabrlanganlarga dastlabki yordam ko‘rsatish kabi vazifalar bajarildi.

Mashg‘ulot jarayonida yong‘in-qutqaruv bo‘linmalarining harakatlari alohida ahamiyat kasb etdi. Xodimlar maxsus himoya kiyimlari va nafas olish apparatlaridan foydalangan holda shartli xavfli hududda harakatlanib, qutqaruv ishlarini belgilangan tartibda amalga oshirdilar.

Shuningdek, talabalar yotoqxonasida istiqomat qiluvchi yoshlarning favqulodda vaziyat yuz bergandagi harakatlari ham amaliy mashq qilindi. Evakuatsiya jarayonida fuqarolarning vahimaga berilmasligi, xavfsiz chiqish yo‘nalishlaridan foydalanish va mas’ul xodimlarning ko‘rsatmalariga amal qilishi muhimligi namoyon etildi.

Maxsus-taktik o‘quv mashqi davomida favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda turli xizmatlar o‘rtasidagi hamkorlik va o‘zaro muvofiqlashtirilgan harakatlarning ahamiyati yana bir bor ko‘rsatib berildi.

Bunday mashg‘ulotlar nafaqat qutqaruvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, balki favqulodda vaziyat sodir bo‘lgan paytda mavjud kuch va vositalardan samarali foydalanish, qaror qabul qilish tezligini oshirish hamda har bir xodimning o‘z vazifasini aniq bajarishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ayniqsa, talabalar yashaydigan yotoqxona kabi bir vaqtning o‘zida ko‘plab insonlar istiqomat qiladigan obyektlarda xavfsizlik choralarini kuchaytirish, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikni muntazam ravishda sinovdan o‘tkazib borish muhim ahamiyatga ega.

O‘tkazilgan maxsus-taktik o‘quv mashqi favqulodda vaziyatlarda har bir soniyaning qanchalik muhim ekanini yana bir bor ko‘rsatdi.

Farhod PO‘LATOV,
Navoiy viloyati FVB boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari – Shtab boshlig‘i, podpolkovnik

YUQUMLI KASALLIKLAR
tarqalishining oldini olish

Aholi salomatligini muhofaza qilish, yuqumli va zoonoz kasalliklarning oldini olish, favqulodda vaziyatlarda tezkor va samarali harakat qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda Baliqchi tumanida maxsus-taktik o‘quv mashqi o‘tkazildi.



“Yuqumli, shuningdek, zoonoz kasalliklarning kelib chiqishi va tarqalishining oldini olishda FVDT xizmatlarining hamkorlikdagi harakatlari” mavzusidagi mazkur mashg‘ulot Baliqchi tumani “G‘alaba” oilaviy shifokorlik punktida tashkil etildi.

Mashg‘ulotning asosiy maqsadi – yuqumli kasalliklarning kelib chiqishi yoki tarqalishi ehtimoli yuzaga kelganda mas’ul xizmatlar hamda tegishli tashkilotlarning o‘zaro hamkorligini kuchaytirish, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik darajasini oshirish va amaliy harakatlarni takomillashtirishdan iborat.

O‘quv mashqi davomida shartli ravishda yuqumli kasallik aniqlangan vaziyat yuzaga keltirilib, uning tarqalishining oldini olish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rildi. Jumladan, kasallik o‘chog‘ini aniqlash, vaziyatni baholash, zarur kuch va vositalarni jalb etish, aholini himoya qilish hamda sanitariya-epidemiologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan amaliy harakatlar bajarildi.

Shuningdek, mashg‘ulot jarayonida FVDT xizmatlari, tibbiyot xodimlari va tegishli tashkilotlarning favqulodda vaziyat yuzaga kelganda tezkor harakatlanishi, o‘zaro axborot almashishi, kuch va vositalarini safarbar etishi hamda yagona boshqaruv asosida hamjihatlikda faoliyat olib borishi sinovdan o‘tkazildi.

Bunday o‘quv mashg‘ulotlari favqulodda vaziyatlarning oldini olish, xavfli holatlarda aholining hayoti va salomatligini muhofaza qilish, shuningdek, xizmatlarning amaliy tayyorgarligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zero, yuqumli kasalliklarning oldini olishda ularni erta aniqlash, tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik, tezkor choralar ko‘rish va barcha mas’ul xizmatlarning o‘zaro hamkorligi muhim omillardan biridir.

Baliqchi tumanida o‘tkazilgan mazkur maxsus-taktik o‘quv mashqi ham favqulodda vaziyatlarning oldini olish, sanitariya-epidemiologik barqarorlikni ta’minlash va aholi xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan amaliy tadbirlardan biri bo‘ldi.

Kamoliddin YO‘LDOSHEV,
Baliqchi tumani FVB boshlig‘i o‘rinbosari



Yangi o‘quv yili boshlanishi munosabati bilan Namangan viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi tomonidan Namangan shahridagi Namangan pedagogika institutining talabalar yotoqxonasida o‘quv mashqi o‘tkazildi.

Evakuatsiya qoidalariga rioya etish hamda xavfsizlik choralarini ta’minlash

Mashqdan ko‘zlangan asosiy maqsad talabalar yotoqxonasida yong‘in va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish, yong‘in xavfsizligini ta’minlash, favqulodda vaziyat yuzaga kelganda qutqaruv bo‘linmalari hamda Favqulodda vaziyatlar davlat tizimi (FVDT) tuzilmalarining hamkorlikdagi harakatlarini muvofiqlashtirish, voqea joyiga tezkor yetib borish va odamlarni xavfsiz evakuatsiya qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlashdan iborat bo‘ldi.

O‘quv mashqi davomida favqulodda vaziyatlar bo‘linmalari va hamkor tashkilotlarning tezkor harakatlari, yong‘inning tarqalishini cheklashda maxsus texnikalardan samarali foydalanish, kuch va vositalarni to‘g‘ri boshqarish hamda qutqaruv ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar mustahkamlandi.

Mashq yakunida talabalarga yong‘in yoki boshqa favqulodda vaziyat sodir bo‘lganda to‘g‘ri harakat qilish, evakuatsiya qoidalariga rioya etish hamda xavfsizlik choralarini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha yo‘riqnoma berildi.

Qahromon SATTOROV,
Namangan viloyati FVB Axborot xizmati boshlig‘i, mayor

Halollik va vatanparvarlik

Paxtakor va Arnasoy tumanlari Favqulodda vaziyatlar bo‘limlarida harbiy xizmatchilar, xizmatchilar va ularning oila a’zolari ishtirokida huquqiy savodxonlik doirasida profilaktik tadbirlar tashkil etildi.

Unda xizmat intizomi va qonuniylikni mustahkamlash, korrupsiya va boshqa turdagi huquqbuzarliklarning oldini olish, xodimlar o‘rtasida yuksak mas’uliyat, halollik va vatanparvarlik fazilatlarini yanada kuchaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Tadbirda oshlar bilan ishlash va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish, xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, xizmat faoliyati davomida odob-axloq qoidalariga qat’iy rioya etish yuzasidan zarur tavsiya va ko‘rsatmalar berildi.

Xodimlarning oila a’zolari bilan ham suhbatlar o‘tkazilib, oilaviy muhitning xodim xizmat faoliyatidagi o‘rni, farzandlar tarbiyasiga e’tibor qaratish hamda ularni turli salbiy ta’sirlardan asrash masalalari yuzasidan tushuntirishlar berildi.

Tadbir yakunida ishtirokchilarning savollariga atroflicha javob berilib, xizmat faoliyatida qonunchilik talablariga og‘ishmay amal qilish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish hamda xizmat intizomini yanada mustahkamlash bo‘yicha tegishli vazifalar belgilab olindi. Shuningdek, huquqbuzarliklarning ayanchli oqibatlarini aks ettiruvchi “Nadomat” videoroligi namoyish etildi.

Farhod UBAYEV,
Jizzax viloyati FVB Shaxsiy xavfsizlik bo‘limi boshlig‘i, mayor

Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish hamda fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Ayniqsa, xizmat faoliyati davomida transport vositalaridan foydalanadigan xodimlarning yo‘l harakati qoidalariga qat’iy rioya qilishi nafaqat o‘z hayoti va sog‘lig‘i, balki boshqa yo‘l harakati ishtirokchilarining xavfsizligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.





YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGI – barchamizning mas’uliyatimiz

Shu maqsadda payshanba – huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni doirasida Qashqadaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida “Yo‘l-transport hodisasi: kelib chiqish sabablari va oldini olish chora-tadbirlari” mavzusida tadbir tashkil etildi.

Unda boshqarma hamda barcha bo‘lim va bo‘linmalarning shaxsiy tarkibi videokonferensaloqa orqali onlayn tarzda ishtirok etdi.

Yo‘l-transport hodisalarining asosiy sabablari, ularning oldini olishda haydovchi va piyodalarning mas’uliyati, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga rioya etishning huquqiy asoslari haqida batafsil ma’lumotlar berildi. Shuningdek, amaldagi yo‘l harakati qoidalaridagi talablar, so‘nggi o‘zgarish va qo‘shimchalar ishtirokchilarga yetkazildi.

Mutaxassislar tomonidan tezlikni belgilangan me’yordan oshirmaslik, transport vositasini mast yoki charchoq holatida boshqarmaslik, xavfsizlik kamaridan foydalanish, yo‘l va ob-havo sharoitlarini inobatga olish, harakat vaqtida mobil telefondan foydalanmaslik kabi muhim talablar alohida ta’kidlandi.

Shuningdek, xizmat transport vositalaridan foydalanishda texnik sozlikni nazorat qilish, belgilangan yo‘nalish va tezlik talablariga amal qilish, haydovchilarning yo‘l harakati madaniyatini oshirish masalalariga ham e’tibor qaratildi.

Tadbir yakunida shaxsiy tarkibga yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga qat’iy amal qilish, transport vositasini boshqarishda hushyorlik va mas’uliyatni yanada oshirish bo‘yicha tegishli tavsiyalar berildi.

Aziz QUDRATOV,
Qashqadaryo viloyati FVB bo‘lim boshlig‘i

VATAN MEHRI, vijdon amri bilan...

Samarqand viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi hamda uning shahar va tuman bo‘limlarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar o‘rtasida xizmat intizomini mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, shuningdek, xavfsizlik talablariga qat’iy rioya etilishini ta’minlash maqsadida profilaktik tadbir o‘tkazildi.

Tadbir FVVning mas’ul xodimlari hamda Samarqand viloyati FVB rahbariyati ishtirokida “Zoom” platformasi orqali tashkil etilib, unda boshqarma va uning shahar hamda tuman bo‘limlarining shaxsiy tarkibi qatnashdi.

Uchrashuv davomida tizimda xizmat intizomini yanada mustahkamlash, harbiy xizmatchilarning xizmat vazifalariga mas’uliyat bilan yondashishini ta’minlash, mavjud qonun va me’yoriy hujjatlar talablariga rioya etish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Xususan, xizmat faoliyatida korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish, korrupsiya bilan bog‘liq jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda xizmat vakolatlaridan qonunga xilof ravishda foydalanmaslik yuzasidan tushuntirishlar berildi.

So‘zga chiqqanlar har bir harbiy xizmatchi o‘z xizmat faoliyatida halollik, shaffoflik, xolislik va qonuniylik tamoyillariga qat’iy amal qilishi lozimligini ta’kidladilar. Shuningdek, xizmat intizomini buzish bilan bog‘liq holatlar nafaqat xodimning o‘ziga, balki butun tizim nufuziga salbiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilib, bunday holatlarning oldini olishda shaxsiy mas’uliyat muhim ekani ta’kidlandi.

Profilaktik tadbirda harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilishi mumkin bo‘lgan turli jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish, xizmat va xizmatdan tashqari vaqtda belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilish, fuqarolar bilan muloqot jarayonida muomala madaniyati va kasbiy etika talablarini buzmaslik masalalari ham muhokama qilindi.

Bundan tashqari, harbiy xizmatchilar ishtirokida yo‘l-transport hodisalarining oldini olish masalasiga ham alohida to‘xtalib o‘tildi. Xizmat avtomobillaridan foydalanishda yo‘l harakati qoidalariga qat’iy rioya qilish, transport vositasini boshqarishda belgilangan tezlik talablarini buzmaslik, haydovchilarning mas’uliyatini oshirish hamda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha zarur tavsiyalar berildi.





Shuningdek, xizmat davomida xavfsizlik qoidalariga amal qilish, qurol-yarog‘ va maxsus vositalardan foydalanishda belgilangan talablarni buzmaslik, mehnat va yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etish, favqulodda vaziyatlarning oldini olishda hushyorlikni oshirish zarurligi qayd etildi.

Tadbir davomida shaxsiy tarkibning xizmat faoliyatida uchrashi mumkin bo‘lgan turli xavf-xatarlar, ularning oldini olish choralari hamda qonunbuzarlik sodir etilishiga olib keluvchi omillar haqida ham batafsil tushuntirishlar berildi.

Yakunda har bir harbiy xizmatchi xizmat intizomiga qat’iy rioya qilishi, o‘z xizmat vazifalarini vijdonan bajarishi, halollik tamoyillariga amal qilishi, shuningdek, har qanday huquqbuzarlik va salbiy holatlarning oldini olishga mas’uliyat bilan yondashishi, yurt mehri, vijdon amri bilan faoliyat olib borishi lozimligi ta’kidlandi.

Bunday profilaktik tadbirlar shaxsiy tarkib o‘rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, xizmat intizomini mustahkamlash hamda favqulodda vaziyatlar tizimida xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Ilhom BOQIYEV,
Samarqand viloyati FVB Axborot xizmati boshlig‘i, kapitan

TOG' BAG'RIDAGI SINOV

4-qism



(Davomi. Boshi o‘tgan sonlarda)

Qiziltom qishlog‘iga kirib kelganimizda, bizni kutib olgan odamlarning yuzidagi tabassumni ko‘rishning o‘zi bir necha kunlik mashaqqatimizni unuttirgandek bo‘ldi. Qishloq maktabi binosiga deyarli barcha aholi yig‘ilgan. Ularning nigohidagi xavotir o‘rnini umid va quvonch egallagandi...

Polkovnik Farhod Mirzayev va Qamashi tumani hokimi Xurshid Usmonov zudlik bilan viloyat hokimi Murod Berdialiyevich bilan telefon orqali bog‘lanib, topshiriq muvaffaqiyatli bajarilgani haqida axborot berdi. Oradan ko‘p o‘tmay qishloqning faol fuqarosi, maktab o‘qituvchisi Tursoat aka oldinga chiqdi. Hayajondan ovozi titrar, ko‘zlari esa yoshga to‘lgan edi:

– Yo‘limizni ochib bergan barchangizdan umrbod minnatdormiz. Sizlar nafaqat yo‘lni ochdingiz, balki bizning umidimizni ham qayta yoqdingiz... – dedi. Bu so‘zlar biz uchun har qanday mukofotdan qadrliroq edi. So‘ng Tursoat aka bizni qishloqning eng keksa nuroniy otaxoninikiga boshlab bordi. Otaxon qo‘llarini duoga ochib, Prezidentimizga, yo‘l ochish ishlarida qatnashgan Favqulodda vaziyatlar vazirligi harbiy xizmatchilariga, hokimlik vakillariga va barcha mehnat qilgan insonlarga sog‘liq, omonlik va yurt tinchligini tilab uzoq duo qildi. O‘sha duoni tinglar ekanman, qalbim allanechuk bo‘lib ketdi. Shu paytgacha chekkan sovuq, charchoq va mashaqqatlar go‘yo bir lahzada unutilgandek edi. Men uchun o‘sha duo eng yuksak mukofot, eng oliy e’tirof bo‘ldi.

Ammo sinov hali yakunlanmagan ekan. Qaytish ham sinovli kechdi. Orqaga qaytishda har kimga nasib etgan ulovda yo‘l oldik. Kimdir ot minib ketdi, kimdir piyoda yurdi. Menga esa eshak nasib qildi. Rostini aytsam, o‘sha eshakdagi yo‘l bugun kulib eslaydigan, ammo o‘sha paytda juda og‘ir kechgan xotiralardan biridir. Yonimda ot minib kelayotgan tuman mas'ullaridan birining esa ancha qiynalayotgani bilinib turardi. Har bir harakatidan uning ot minishga odatlanmagani sezilar, otning har bir qadamida muvozanatini zo‘rg‘a saqlab borardi. Bir tomondan bu manzara beixtiyor kulgi uyg‘otardi. Ikkinchi tomondan esa tog‘ hech kimni ayamasligini, hammani birdek sinashini yana bir bor isbotlardi. Qishloq ahlining beg‘araz yordamini esa umrimning oxirigacha unutmayman. Ularning samimiyligi, mehmondo‘stligi va eng og‘ir damda hech ikkilanmay yordam qo‘lini cho‘zganlari qalbimda o‘chmas iz qoldirdi.

Avtomobillar turgan joyga yetganimizdan keyin safarning yana bir og‘ir bosqichi boshlandi. Shtab tomon olib boruvchi yo‘l tik qiyaliklardan iborat edi. Qalin qor ostidagi muzlagan yo‘lda mashinalar birin-ketin sirpanib, harakatdan to‘xtab qolardi. Endi texnikaga emas, inson kuchiga navbat kelgan edi. Bir mashinani itarib qiyalikdan chiqaramiz. Ikkinchisi botib qoladi. Uni chiqarishga ulgurmay uchinchisi to‘xtaydi.

Shu tariqa yo‘lning deyarli har metri inson kuchi bilan zabt etildi. O‘sha kuni tanamdagi bor kuchni ishga soldim. Har bir qadam tobora og‘irlashardi. Har bir nafas kurashga aylanib borardi. Ichimda esa tinmay takrorlanayotgan bitta iltijo bor edi. “Ey Xudoyim, meni yiqitib qo‘yma...” Charchoq shu darajaga yetgandiki, gohida allaqachon bu olamni tark etgan bobomning siymosi ko‘z oldimda gavdalanib ketardi.

Nihoyat... Tun bag‘rida baland qiyaliklarni ortda qoldirib, holdan toygan bo‘lsak-da, shtabga yetib keldik. O‘sha lahzada manzilga yetganimizdan ko‘ra, yana bir sinovdan omon chiqqanimizni chuqurroq his qilgandik. Safar tugadi, saboq xotiralar esa abadiy qoladi. Biz rahbar bilan birinchilar qatorida viloyat markazi tomon yo‘l oldik. Sababi ham jiddiy edi. Yo‘l davomida Favqulodda vaziyatlar vazirligi rahbariyatining Qashqadaryo viloyatiga tashrifi rejalashtirilayotgani haqida xabar kelgandi.

Eng og‘ir tashvishlar ortda qolgandek edi. Polkovnik Farhod Mirzayev imkon qadar tezroq Qarshi shahriga yetib borishga shoshilardi. Chunki viloyat markazida uni kutayotgan yana bir qancha muhim vazifalar bor edi. Mashinada uch kishi edik. Rulda serjant Sanjar Ahmedov, uning yonida boshlig‘imiz, men esa orqa o‘rindiqda ketayotgandim. Yo‘lning mashaqqatlari endigina ortda qolayotgandek tuyulgan bir paytda, boshliqning telefoni jiringladi. U qo‘ng‘iroqqa javob berdi.

– Boshliq... Men yo‘lda qolib ketdim. Mashinalarga chiqolmay qoldim... – dedi telefonning narigi tomonidagi ovoz. Bu Qamashi tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limining katta inspektori, katta leytenant Ziyodulla Eshtemirov edi. Polkovnik Farhod Mirzayev bir lahza jim qoldi. Mashina ichiga ham sukunat cho‘kdi. U avval menga, keyin Sanjarga qaradi. – Voy... Qanday qilib? – dedi hayrat bilan.

Ma’lum bo‘lishicha, yo‘lda tez tibbiy yordam avtomobili loyga botib qolgan. Uni chiqarish uchun barcha imkoniyat ishga solingan. Atrofdagilar buldozer, yuklagich va boshqa texnikalarga chiqib ketishga ulgurgan. Ammo shoshilinch va sarosima ichida Ziyodulla Eshtemirov birorta texnikaga chiqishga ulgurmay, tog‘ yo‘lida yolg‘iz qolib ketgan ekan. Bu xabarni eshitgan boshliq darhol vaziyatni qo‘lga oldi. U mashina ichidayoq birinchi o‘rinbosari, podpolkovnik Mirzohid Ostonovga qo‘ng‘iroq qilib, qat’iy topshiriq berdi:

– Mirzohid! Zudlik bilan ortga qaytinglar. Ziyodullani hech qanday holatda u yerda qoldirmang. Uni xavfsiz olib kelinglar!

Bu buyruq ortidan qidiruv ishlari darhol tashkil etildi. Chunki bunday sovuq, qor va tog‘ sharoitida bir insonning yolg‘iz qolishi juda katta xavf tug‘dirardi. Eng muhimi, hech kim ortda qolmasligi kerak edi. Podpolkovnik Mirzohid Ostonovga topshiriq berilgandan so‘ng, mashina ichidagi kayfiyat butunlay o‘zgardi. Polkovnik Farhod Mirzayev tashqaridan o‘zini xotirjam tutishga harakat qilayotgan bo‘lsa-da, uning ichki bezovtaligini yashirishning iloji yo‘q edi. Har daqiqada telefoniga qarab qo‘yar, aloqa chiqadimi, degan umidda yo‘lni davom ettirardi. Go‘yo vaqt ham sekinlashib qolgandek edi. Nihoyat, telefon jiringladi.

– Boshliq, Ziyodullani topdik. Olib kelyapmiz, hammasi joyida... – degan xabar eshitilishi bilan polkovnik Farhod Mirzayev chuqur nafas oldi. Rostini aytsam, ana shu xabar kelguniga qadar boshlig‘imiz bir necha bor "o‘lib-tirildi", desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki rahbar uchun topshiriqning bajarilishi qanchalik muhim bo‘lmasin, undan ham muhimrog‘i – o‘zi bilan birga xizmat qilayotgan har bir xodimning sog‘-omon qaytishidir. Shu lahzada yana bir bor angladim: haqiqiy rahbar natija uchungina emas, avvalo, inson hayoti uchun qayg‘urar ekan.

Ammo yo‘l-yo‘lakay ham u bir narsani unutmadi.

Podpolkovnik Mirzohid Ostonov bilan bog‘lanib, qor bilan kurashda jonbozlik ko‘rsatgan barcha texnika egalari, quruvchilar, harbiy xizmatchilar va jalb etilgan fuqarolarga viloyat hokimi hamda boshqarma nomidan alohida minnatdorlik bildirilishini topshirdi. Bu oddiy topshiriq emas edi. Bu inson mehnatini qadrlaydigan rahbarning yuksak fazilati edi. Nihoyat, uzoq va mashaqqatli safar ortda qoldi. Uzoqdan shahar chiroqlari ko‘rina boshladi. Ko‘chalardagi svetoforlar, asfalt yo‘llar, elektr nurlari... Oldin biz uchun odatiy bo‘lib tuyulgan manzaralar endi tamoman boshqacha ma'no kasb etayotgandi. Bir necha kun avval qor bag‘rida hayot va burch o‘rtasida kurashgan inson uchun iliq uy, yorug‘ ko‘cha, issiq non va osoyishta tunning qadri butunlay boshqacha ekan.

O‘sha safar menga hayotning eng katta saboqlaridan birini berdi. Men u yerda qorning qanchalik baland yog‘ishini emas, insonning matonati undan ham baland bo‘lishini ko‘rdim. Men u yerda sovuqning qanchalik qahrli ekanini emas, inson qalbidagi mehr va birdamlik undan ham iliqroq ekanini his qildim. Men u yerda rahbarning mas'uliyati, safdoshning sadoqati va oddiy insonlarning beg‘araz yordami har qanday texnikadan ham kuchliroq tayanch bo‘la olishini angladim. Bugun oradan vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, Qiziltom sari boshlangan o‘sha safarni eslaganimda bir fikr xayolimdan o‘tadi: Ba'zan inson eng uzoq yo‘lni tog‘lar orasida emas, o‘z qalbida bosib o‘tarkan. Qor eriydi. Yo‘llar ochiladi. Ammo oq sukunat bag‘rida kechgan o‘sha kurash va u bergan saboqlar qalbimda umrbod muzlamaydigan xotira bo‘lib qoladi.

Qiziltom sari boshlangan bu safarda sovuqning qanchalik qahrli ekanini emas, inson qalbidagi mehr, birdamlik va insoniylik undan-da iliqroq ekanini his qildim. Eng muhimi, rahbarlik buyruq berish emas, eng og‘ir damlarda jamoaning oldida yurish, odamlarning dardini o‘z dardidek his qilish va mas'uliyat yukini hammadan avval o‘z yelkasiga olish ekanini angladim.

Buni viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i polkovnik Farhod Mirzayev, uning birinchi o‘rinbosari podpolkovnik Mirzohid Ostonov, Qamashi tumani hokimi Xurshid Usmonov hamda ular bilan yelkama-yelka xizmat qilgan yuzlab fidoyi insonlar o‘z mehnati va jasorati bilan amalda namoyon etdilar.

Ammo qor bag‘rida uzatilgan yordam qo‘li, bir kosa issiq sho‘rvaning qadri, safdoshingning yelkangga qo‘yilgan dalda beruvchi qo‘li, qishloq ahli ko‘zidagi minnatdorlik yoshlari va bir maqsad yo‘lida yelkama-yelka xizmat qilgan insonlarning fidoyiligi qalbda umrbod o‘chmaydigan xotira bo‘lib qoladi.

Sohibjon VAYITOV,
Qashqadaryo viloyati FVB
Axborot xizmati rahbari



Tabiat biz insonlarga bitmas-tuganmas boyliklar, oziq-ovqat, musaffo suv va hayot uchun zaruriy imkoniyatlarni taqdim etgan. Ulardan foydalanishda har bir kishi o‘ta ehtiyotkorona va mas’uliyatli bo‘lishi shart. Chunki tabiat bilan munosabat buzilgan holatlarda, ehtiyotkorlik unutilganda, tabait qonunlariga bo‘ysunmaslik va beparvolik oqibatida inson hayoti uchun xavfli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, yoz oylarida aholining taqiqlangan hududlarda xavfsizlik qoidalariga zid ravishda cho‘milishlari ko‘p hollarda ayanchli yakun topmoqda.

Suvda suzishni bilmasangiz...



Ayniqsa yozda qolaversa kuzning issiq kunlarida ko‘pchilikning dam olish, hordiq chiqarish va salqinlash uchun suv havzalari, daryo hamda ko‘llar bo‘yiga – salqinroq joylarga intilishi sezilarli daraja oshadi.

Suv – hayot manbayi, u naqadar mehribon va hayotbash unsur. Biroq e’tiborsizlik va qoidalarga rioya qilmaslik uni soniyalarda ulkan xavf-xatarga aylantirishi mumkin. Afsuski, har yili dunyo bo‘yicha ham, mamlakatimizda ham yuzlab insonlar suvda cho‘milish chog‘ida fojiali tarzda halok bo‘lmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab har yili 236 mingdan ortiq inson cho‘kish oqibatida hayotdan ko‘z yumadi. Bu ko‘rsatkich cho‘kishni tasodifiy jarohatlanishlar natijasidagi o‘lim sabablari orasida uchinchi o‘ringa qo‘yadi. Eng achinarlisi, ushbu fojialarning aksariyati aynan suzishni bilmaslik yoki suvda o‘zini tutish qoidalariga mensimay qarash oqibatida yuzaga keladi. Ayniqsa, yosh bolalar va o‘smirlar o‘rtasida bunday noxush holatlar ko‘p kuzatiladi. Suv havzasining chuqurligini bilmaslik, oqimning kuchini to‘g‘ri baholay olmaslik hamda xavfsizlik choralariga amal qilmaslik bir lahzada bir oilaning chirog‘i o‘chishiga sabab bo‘lmoqda.

Maxsus ajratilmagan, qutqaruv xizmati navbatchilik qilmaydigan daryo, kanal va sun’iy suv havzalarida cho‘milish nihoyatda xavflidir. Bunday joylarda suv tubi noma’lum, oqim kutilmaganda kuchayishi yoki ostida girdoblar bo‘lishi mumkin.

Suzishni mutlaqo bilmaydigan yoki faqat sayoz joyda suza oladigan insonlar ba’zan o‘z kuchiga ortiqcha baho berib, chuqur joylarga kirib ketishadi. Suv tubi to‘satdan yo‘qolganda yuzaga keladigan vahima esa insonni to‘liq shol holatiga keltirib, tezda cho‘kishga olib keladi. Ba’zan insonning tomirlari to‘satdan tortishishi ham mumkin.

Yosh bolalarda xavf-xatarni his qilish tuyg‘usi shakllanmagan bo‘ladi. Ular hatto 10-15 sm chuqurlikdagi suvda ham yuzini suvdan ko‘tara olmay, soniyalar ichida cho‘kib ketishlari mumkin.

Qizigan tana bilan birdaniga sovuq suvga sho‘ng‘ish ba’zan yurak yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin. Buni avvaldan bilib bo‘lmaydi. Tanani sovuq suvga asta ko‘niktirib, so‘ng sho‘ng‘igan ma’qul.

Suvda suzishni bilmaslik – bu suv havzasi bo‘yida dam olish taqiqlanadi degani emas. Ammo bu holatda har bir qadam o‘ylab bosilishi va xavfsizlik choralari maksimal darajada ta’minlanishi shart. Suzish ko‘nikmasiga ega bo‘lmagan va suv bo‘yida dam olayotgan har bir fuqaro quyidagi tavsiyalarga qat’iy amal qilishi zarur:

hech qachon taqiqlangan belgilari bor bo‘lgan, qarovsiz, aniqlanmagan daryo va kanallarga tushmang. Faqat va faqat maxsus jihozlangan, qutqaruvchilar navbatchilik qilayotgan va tibbiyot punkti mavjud bo‘lgan joylar hamda cho‘milish havzalaridan foydalaning.

Suzishni bilmaydigan insonlar suvga tushganda, albatta, maxsus qutqaruv nimchalari kiyishlari shart. Puflama halqalar yoki yengchalar to‘liq xavfsizlikni ta’minlamaydi, chunki ular teshilishi yoki qo‘ldan chiqib ketishi mumkin. Qutqaruv nimchasi esa tanani suv betida ushlab turish kafolatini beradi.

Suvga tushganda faqat va faqat ko‘krak qafasigacha kelmaydigan, oyoq ostidagi yer to‘liq his qilinadigan sayoz joylarda qoling. Suv ostidagi relyef kutilmaganda o‘zgarishi, to‘satdan chuqurlashib ketishi mumkinligini doimo yodda tuting.

Agar to‘satdan chuqur joyga tushib qolsangiz yoki oyoq ostida yer yo‘qolsa, eng muhim qoida – vahimaga tushmaslikdir. Vahima insonning kislorodni tez yo‘qotishiga va tezroq cho‘kishiga sabab bo‘ladi. Boshni orqaga tashlab, ko‘krak qafasiga imkon qadar ko‘proq havo yutib, chalqancha yotishga harakat qiling. Havo to‘la o‘pka inson tanasini suv yuzida cho‘kmay, qalqib turishiga yordam beradi.

Kattalar bolalar bilan suv bo‘yida bo‘lganda, doimiy ko‘z ostida tutish va qo‘lidan tutib turishi shart. Bolaning suvda yolg‘iz qolishiga yoki faqat tengdoshlari bilan o‘ynashiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Tez oqadigan daryolar, muzdek tog‘ suvlari va tik, sirpanchiq qirg‘oqlardan uzoqroq yuring. Bunday joylarda suvga tushib ketgan insonning o‘zi mustaqil ravishda qirg‘oqqa chiqib olishi deyarli imkonsizdir.

Agar suvda biror kishining cho‘kayotganiga guvoh bo‘lsangiz: darhol baland ovozda qutqaruvchilarni hamda atrofdagilarni yordamga chorlang.

Zudlik bilan favqulodda xizmatlarga xabar bering. O‘zingiz suzishni bilmasangiz, hech qachon cho‘kayotgan insonni qutqarish uchun suvga sakramang! Bu ikkita insonning halok bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Bunday holda aql bilan harakatlanish, imkon bo‘lsa, unga nimadir uzatish, bo‘lmasa, yaqin atrofdagilarni yordamga chaqirish zarur.

Cho‘kayotgan insonga suv yuzida ushlanib turishi uchun qutqaruv halqasi, arqon, yog‘och bo‘lagi yoki puflama buyumlarni uloqtiring.

Suvda xavfsiz harakat qilish va o‘z hayotini asrash har bir insonning o‘z qo‘lida. Suzishni o‘rganishga hech qachon kech emas – har bir fuqaro, ayniqsa, yoshlar va bolalar maxsus suzish kurslarida ushbu hayotiy ko‘nikmani egallashlari maqsadga muvofiqdir. Unutmang, suv xatolarni va e’tiborsizlikni kechirmaydi. O‘zingiz va yaqinlaringiz hayotiga befarq bo‘lmang!

Gulnora SHERMATOVA,
“Vaziyat” muxbiri





Tomog‘ingiz qirilyaptimi?

Ko‘p odamlar kun davomida tomog‘ini qayta-qayta qirib qo‘yadi va bunga o‘zi deyarli e’tibor ham bermaydi. Ayniqsa, sovuq kunda, changli joyda yoki uzoq gapirgandan keyin tomoqda nimadir “tiqilib” qolgandek tuyulishi, ovozni rostlash uchun yo‘talib yoki tomoq qirib qo‘yish hammaga tanish hol. Ammo bu holat tez-tez takrorlana boshlasa-chi? Suhbat orasida, majlisda, telefonda gaplashayotganda, kitob o‘qiyotganda, hatto hech qanday sabab sezilmaganda ham odam qayta-qayta tomog‘ini qiradigan bo‘lsa, bunga beparvo qarash to‘g‘rimi? Yo‘q, to‘g‘ri emas.

Tomoq qirish aslida, ko‘pincha, kasallik emas, balki organizmning qandaydir noqulaylikka javobidir. U tomoq shilliq qavatining ta’sirlanishi, allergik holat, ovqatlanish bilan bog‘liq muammo, ob-havo almashinuvi, burun va tomoqdagi ayrim o‘zgarishlar tufayli yuzaga kelishi mumkin. Ba’zan esa u shunchaki odatga aylanib ketadi. Eng muhimi, bir qarashda arzimasdek tuyulgan bu holat uzoq davom etsa, uning asl sababini aniqlash kerak bo‘ladi.

Tomoq qirilishi – organizmning tomoqdagi noqulaylikni yo‘qotishga urinishi, desak bo‘ladi. Tomoqda quruqlik, qitiqlanish, shilliq modda yig‘ilishi yoki begona narsa bordek sezgi paydo bo‘lganda inson beixtiyor tomog‘ini qirib oladi. Bir zumga yengillik ham seziladi. Ammo bu holat qayta-qayta davom etaversa, qirishning o‘zi ham tomoqni yana ta’sirlantirishi, zarar keltirishi mumkin. Odam tomog‘ini qiradi, bir oz yengillashadi, biroq tomoqdagi shilliq qavat yana qo‘zg‘aladi va yana qirish istagi tug‘iladi. Bu go‘yo bir-birini davom ettiradigan aylana holatga o‘xshaydi. Ayniqsa, uzoq vaqt davomida baland ovozda gapiradigan, dars beradigan, ma’ruza qiladigan, qo‘shiq aytadigan yoki telefon orqali ko‘p suhbatlashadigan odamlarda bunga e’tibor berishi lozim.

Tomoqni tez-tez qirishning sababi faqat ovozga zo‘r berish emas. Ba’zan bunga umuman boshqa omillar sabab bo‘ladi.

Allergik kasallikka moyil insonlarda tomoqning qirilishi ko‘p uchraydi. Tomoq qirishning ko‘p uchraydigan sabablaridan biri allergik holatlardir. Ayrim odamlarda gul changi, uy changi, hayvon juni, o‘tkir hidlar, atir-upa vositalari yoki boshqa ta’sirlovchilar organizmda sezuvchanlikni kuchaytirishi mumkin. Bunday paytda burun oqishi, aksirish, ko‘z yoshlanishi bilan bir qatorda tomoqda qitiqlanish ham paydo bo‘ladi.

Ba’zilar o‘zlarida allergik xastalik borligini bilmaydilar. Ma’lum joyga borganda, muayyan fasl kelganda yoki biror narsaga yaqinlashganda tomog‘i ko‘proq qirilayotganini sezadi. Masalan, bahor oylarida gul va o‘simlik changlari ko‘paygan davrda ayrim insonlarda tomoq qitiqlanishi kuchayadi. Uy changi ko‘p xonalarda yoki keskin hidlar bor joyda ham shu holat kuzatilishi mumkin.

Allergik holatlarda tomoqni qayta-qayta qirish muammoni bartaraf etmaydi. Aksincha, sabablar davom etayotgan bo‘lsa, noqulaylik ham davom etaveradi. Shuning uchun odam o‘zini kuzatishi kerak: tomoq qirish qachon ko‘payyapti? Qaysi faslda? Qaysi joyda? Biror mahsulot, hid yoki muhit bilan bog‘liqmi? Ana shunday kuzatishlar sababni aniqlashda muhim bo‘lishi mumkin.

Ba’zi taomlar organizmga “mos kelmasligi” mumkin

Har bir insonning organizmi o‘ziga xos. Birov bemalol iste’mol qiladigan ayrim taom yoki mahsulot boshqa birovda noqulaylik tug‘dirishi mumkin. Achchiq, juda nordon, haddan tashqari issiq yoki juda sovuq taomlar ayrim odamlarda tomoqni ta’sirlantirishi mumkin.

Ba’zan ovqatdan keyin tomoqda qitiqlanish, yo‘tal kelgandek bo‘lish, ovozning o‘zgarishi yoki tomoqni qirish istagi kuchayadi. Bunday holatni e’tiborsiz qoldirmaslik kerak. Chunki inson ayrim taom yoki ichimliklarni iste’mol qilgandan keyin bu belgi muntazam takrorlanayotgan bo‘lsa, ovqatlanish bilan bog‘liqligini kuzatish foydali.

Juda achchiq ziravorlar, nordon mahsulotlar, gazli ichimliklar yoki tomoqni ta’sirlantiradigan boshqa mahsulotlar ayrim kishilarda noqulaylikni kuchaytirishi mumkin. Ayniqsa, kechqurun to‘yib ovqatlanib, darhol yotib olish ham ayrim odamlarda tomoqdagi noxush sezgilarni keltirib chiqarishi mumkin.

Shuning uchun “Hamma yeyapti-ku, menga ham zarar qilmaydi”, degan fikr har doim ham to‘g‘ri emasligini yodda tutish lozim. Organizmning o‘ziga xosligini hisobga olish kerak. Agar biror taomdan keyin tomoq qirish muntazam kuchaysa, buni qayd etib, shifokor bilan maslahatlashish maqsadga muvofiq.

Ob-havo ham tomoqning “kayfiyatiga” ta’sir qiladi

Ob-havoning keskin o‘zgarishi ham tomoqdagi noqulaylikka sabab bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, havo sovib ketganda yoki haddan tashqari quruq bo‘lganda tomoq shilliq qavati qurishi va qitiqlanishi mumkin. Yozning jazirama kunlarida sovutish qurilmalari ishlaydigan xonalarda uzoq o‘tirish, qishda esa isitiladigan xonalarning quruq havosi ham ayrim kishilar uchun noqulaylik tug‘diradi.

Ko‘chada sovuq havo, xonada esa juda issiq va quruq muhit – bunday keskin almashinishlar organizmga ta’sir qiladi. Odam issiq joydan sovuqqa tez-tez chiqib-turishi yoki sovuq joydan birdan juda issiq xonaga kirishi ham tomoq sezuvchanligini kuchaytirishi mumkin.

Shamolli, chang-to‘zonli kunlarda ham tomoq qitiqlanishi kuzatiladi. Chang havodagi mayda zarrachalar bilan birga nafas yo‘llariga ta’sir qilishi mumkin. Shu bois bunday paytlarda o‘zini asrash, imkon qadar changli muhitda uzoq turmaslik, yashash va ishlash joyidagi havoning holatiga e’tibor berish muhim.

Tomoq uchun faqat sovuq havoning o‘zi xavfli, deb o‘ylash ham to‘g‘ri emas. Juda quruq va issiq havo ham noqulaylik tug‘dirishi mumkin. Shuning uchun xonani vaqti-vaqti bilan shamollatish, havoning haddan tashqari quruqlashib ketmasligiga e’tibor berish foydali.

Tomoq qirish – odatga aylanganda...

Eng qiziq holatlardan biri shundaki, tomoq qirish vaqt o‘tishi bilan odatga ham aylanishi mumkin. Dastlab tomoqda haqiqatan qitiqlanish bo‘ladi. Inson uni yo‘qotish uchun tomog‘ini qiradi. Keyinchalik esa tomoq qirish muayyan vaziyatlarda takrorlanadigan odatga aylanib qolishi mumkin.

Masalan, hayajonlanganda, gapirishdan oldin, tinglovchilar oldida so‘z boshlashda, asabiylashganda yoki o‘ylanib qolganda odam beixtiyor tomog‘ini qirishi mumkin. Buni o‘zi ham sezmay qoladi. Atrofdagilar esa uning tomog‘ida doim biror muammo bor, deb o‘ylashlari mumkin.

Bunday holatda o‘z odatingizni kuzatib ko‘ring. Siz tomog‘ingizni haqiqatan ham tomoq qitiqlagani uchun qiryapsizmi yoki muayyan paytlarda beixtiyor shu harakatni takrorlayapsizmi? Agar ikkinchi holat ko‘proq bo‘lsa, asta-sekin bu odatni nazorat qilishga harakat qilish mumkin.

Tomoqni qirish istagi kelganda darrov qirib yuborish o‘rniga bir necha soniya tanaffus qilish, tinch nafas olish yoki ozroq suv ichish ayrim hollarda yordam berishi mumkin. Albatta, bu uzoq davom etayotgan kasallik belgisini “odat” deb qabul qilish kerak, degani emas. Avvalo, boshqa sabablar istisno qilinishi lozim.

Ko‘p gapirish va ovozni zo‘riqtirish

O‘qituvchilar, ma’ruzachilar, san’atkorlar, boshlovchilar, savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida ishlaydigan insonlar ko‘pincha kun davomida juda ko‘p gapiradilar. Ovozga doimiy yuklama tushishi tomoqda charchoq va qitiqlanish sezgisini keltirib chiqarishi mumkin.

Ba’zan inson ovozi xirillab qolganidan keyin uni “tozalash” maqsadida tomog‘ini qira boshlaydi. Ammo buni tinimsiz takrorlash ham foydali emas. Ovozga dam berish, keraksiz paytda baqirmaslik, juda baland ovozda uzoq gapirmaslik muhim.

Agar ovozdagi o‘zgarish, xirillash yoki tomoq qirish uzoq davom etsa, buni oddiy charchoq, deb yuravermaslik kerak. Ayniqsa, kasbi doimiy gapirish bilan bog‘liq insonlar o‘z ovoziga ham boshqa muhim “mehnat quroli” kabi ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishlari zarur.

Tomoqni quritib qo‘yish yoki yetarli suv ichmaslik

Ba’zan muammo juda oddiy sababdan boshlanadi: organizm yetarli suyuqlik olmasligi mumkin. Kun davomida kam suv ichish, quruq muhitda ko‘p o‘tirish, ko‘p gapirish tomoqdagi quruqlik hissini kuchaytiradi.

Tomoq quriganda esa inson uni beixtiyor qira boshlaydi. Shuning uchun kun davomida yetarli suyuqlik ichish, ayniqsa, issiq kunlarda organizmning suyuqlikka bo‘lgan ehtiyojini unutmaslik lozim. Biroq suyuqlik ichish hamma holatda tomoq qirishning sababini bartaraf etadi, deb bo‘lmaydi. Agar noqulaylik muntazam va uzoq davom etsa, uning boshqa sabablari bo‘lishi mumkin.

Qachon shifokorga murojaat qilish kerak?

Tomoqni vaqti-vaqti bilan qirish odatda darhol vahimaga tushish uchun sabab emas. Ammo bu holat haftalab davom etsa, tobora kuchaysa yoki boshqa belgilar bilan birga kuzatilsa, shifokorga murojaat qilishni kechiktirmaslik kerak. Masalan, ovozning uzoq vaqt o‘zgarib qolishi, yutishda doimiy noqulaylik, nafas olishda qiyinchilik, tomoqdagi og‘riq yoki boshqa bezovta qiluvchi belgilar paydo bo‘lsa, mutaxassis ko‘rigidan o‘tish muhim. Ayniqsa, o‘zingizcha turli dorilarni ketma-ket qabul qilish yoki har qanday bezovtalikni faqat shamollash bilan bog‘lash to‘g‘ri emas.

Tomoq qirishning asl sababini aniqlash uchun ba’zan otorinolaringolog, zaruratga qarab boshqa mutaxassislarning tavsiyasi kerak bo‘lishi mumkin. Shifokor belgilarning qancha vaqtdan beri davom etayotgani, qachon kuchayishi va boshqa alomatlar haqida so‘rashi mumkin. Shuning uchun o‘z holatingizni oldindan kuzatib borish ham foydali.

Tomog‘ingiz tez-tez qirilsa, bunga “mayda odat” deb beparvo qaramang. Organizmingiz sizga nimadandir darak berayotgan bo‘lishi mumkin. Bunda, eng avvalo, o‘zingizni kuzating: tomoq qirish qaysi paytda ko‘payadi? Changli joydami? Ob-havo o‘zgargandami? Muayyan taomdan keyinmi? Gul changi, hid yoki boshqa ta’sirlovchilar bilan bog‘liqmi? Yoki hayajonlanganingizda beixtiyor takrorlanadigan odatmi?

Quyidagi oddiy tavsiyalarga amal qilish foydali:

– tomoqni sababsiz va qayta-qayta qirish odatini kamaytirishga harakat qiling;

– kun davomida organizmingizga mos miqdorda suyuqlik iching;

– juda quruq, changli va ta’sirlantiruvchi muhitda uzoq qolmaslikka harakat qiling;

– qaysi taom va ichimliklardan keyin tomoqda noqulaylik kuchayishini kuzating;

– o‘zingizda allergik holatlar bo‘lsa, ularni e’tiborsiz qoldirmang;

– ovozni ortiqcha zo‘riqtirmang, unga dam berishni ham unutmang;

– sovuq va issiq muhit o‘rtasidagi keskin almashinishlardan ehtiyot bo‘ling;

– uzoq davom etayotgan yoki kuchayib borayotgan belgilar bo‘lsa, o‘zboshimchalik bilan davolanmay, shifokorga murojaat qiling.

Tomoq qirish kichik bir zaruriy harakatdek tuyulishi mumkin. Ammo u tez-tez, muntazam takrorlanaversa, organizmning “menga e’tibor bering”, degan signallaridan biri bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Sog‘lig‘imizni himoyalash ko‘pincha katta og‘riqlar bilan kurashishdan emas, aynan shunday mayda va takrorlanib turadigan belgilarni vaqtida anglashdan boshlansa, natijasi yaxshi bo‘ladi. Shuning uchun tomog‘ingiz ko‘p qirilayotgan bo‘lsa, uni shunchaki odatiy hol deb qabul qilib ketmang. Sababini kuzating, zarur bo‘lsa mutaxassisga murojaat qiling va eng muhimi, organizmingizning har bir ogohlantirishiga befarq bo‘lmang.

Guli Ikrom qizi,
“Vaziyat” muxbiri

Polvonlar sporti
Chimildiq (sinonim)
...-Peterburg
Hunar, ...-kor
Kartoshkaga o‘xshash tropik meva
Shaxmatchi Nodirbek ...
To‘y malikasi
Qiziqchi Obid ...
“Toqqa chiqmasang ... qayda!”
Bir minutda 60 ta
Qashqadaryo vioyati tumani
Rassom Leonardo da ...
Aktyor ... Rajabov
Fransuz xonandasi Patrisiya ...
Roman, hikoya, qissa (umumiy)
Shoh Bahrom yori (doston)
Xushbo‘y parfyumeriya suvi
Qiyin, yechimi og‘ir
Stol o‘yini
Fin hammomi
Diniy ilmlar oliygohi
O‘rmon yong‘oqli shokolad
Shabada, yel (adabiy)
Parlament yuqori palatasi deputati
Bosh kiyimi
Rossiyadagi daryo
Pishaverib ezilib ketgan ovqat
Doktor ... Ischanov
Erta tong, sahar
Tutqin, mahbus
Boks bellashuvi bo‘limi
Yog‘och qopqoq
Mayin shamol
Qizg‘ish “hol”
Elektron chivin haydagich
Dubaylik
Yaxtalar poygasi
Lozim, triko
“Pitpildiq” qush
Dud, hid
“Oradan ancha ... o‘tdi”
Do, ..., mi, fa
So‘yilgan qovun bo‘lagi
Hind arbobi ... Gandi
Maishiy texnikani qarzga olish
Boshliq, xo‘jayin
Boylik, molmulk
Xakerlar hujumi
Tatarcha sho‘x raqs
Yonilg‘i tashuvchi kema
“Parij-...” rallisi
“Buyuk ... yo‘li”
“Sabr qil!”
Eski shahardagi bozor
Tepasi yarim doira darvoza
AQSh-dagi daryo va shtat
“Xamir uchidan ...!”
Aralash rang
Tabib Abu Ali ibn ...
Hasipning “po‘sti”
Axloq, odob
“Yursang chakki, yeysan ...!”
Dollar rangi
Na issiq, na sovuq
“Kalomi ehtirom ...”
Shoumen ... Umarov (MY5)
Uzoq muddatli bank qarzi
Adib ... Shayxzoda (“Mirzo Ulug‘bek”)
Kemaning ilmoqli tormozi
“It hurar, karvon ...”
Ilk bahor
Choy, ayron, kvas (umumiy)
Zambiya poytaxti (Mark. Afrika)
Navro‘z taomi
9 voltli batareya
“Santa ...” (serial)
Samolyot motori
Pushkin millati
Aktyor ... Tillayev
O‘mbaloq oshuvchi gimnast
Sud rahbari
Aylanma qayroq
Mansub, doir
Ijodkor maoshi
Asqad Muxtor romani
“Qaddingni ... tut!”
Ekrandagi yozuv
Maxfiy raqam, kod
Tog‘ guli
Oliy ma’lumotli medik
Xonanda ijro etadi
Yaponiyadagi vulqon
“Quvnoqlar va zukkolar klubi”
Angla, tushun
Sharafiddin ... Yazdiy (tarixchi)
Satrlar majmui
G‘alaba hayqirig‘i
...olat, ...miral, ...idas
Misoli, xuddi
Tomon, yoq
Ofis, tashkilot
Musobaqa g‘olibi mukofoti
“Rang ..., hol so‘r!”
Chet el xonandasi ... Chelentano
Simbaning yori (m/f)

Tuzuvchi: **O.XUDOYQULOV**

“Tog‘am rozi bo‘lsin desang...”

Ustoz Erkin Vohidov bir voqeani gapirib bergan edilar. U kishining tog‘alari Saxiboyev degan kishi, adashmasam, prokuror bo‘lib xizmat qilgan. Hazrati Shayx Alixonto‘ra Sog‘uniy suhbatlarini bot-bot tashkil qilib turgan. Ustoz tog‘alari tufayli hazrati Sog‘uniyning suhbatlariga erishib, nazarlarini topishga muvaffaq bo‘lganlar.

“Quyosh maskani” degan dostonida tog‘alari haqida mana bunday mehrli e’tirof satrlari bor:

Jigar bo‘lib boqdi necha mushfiq ko‘z,
Necha do‘st-yor topdim, necha birodar,
Esim tanib, menga
“Tog‘a” degan so‘z
“Ota” degan so‘zga bo‘ldi barobar.

Demak, tog‘alari ota o‘rnida u kishini parvarish qilgan. Ustoz hikoya qiladilar:

– Bir kun tog‘am aytdilar: “O‘g‘lim Erkinjon! Men seni o‘stirib-ulg‘aytirdim. Mana, universitetda o‘qitdim. Endi sen taniqli shoir bo‘la boshlading. Agar ikki dunyoda tog‘am mendan rozi bo‘lsin desang, muqaddas dinimizga qarshi biror narsa yozmagin!”

Ustoz aytadilar:

– Shu gapdan keyin biror majburiyat bo‘lib qolganda ham yoki hech qanday zarurat bo‘lmay, shunchaki, jamiyatga yoqish uchun bo‘lsa ham, hech qachon muqaddas islom diniga qarshi biror narsa yozmadim...

Bu so‘z yosh-u qari barcha qalam ahliga tegishli ibratdir. Hali vaqt-u soati keladiki, jahon adabiyotining ba’zi mashhur namunalari ham iymon nuqtayi nazaridan qayta baholanadi.

XX asrning eng muhtasham allomalaridan bo‘lgan hazrati Shayx Mavlaviy-Hindistoniy endigina “Yoshlik devoni”ni nashr ettirgan shoir haqida: “Erkin Vohid degan shoir chiqibdi, uning she’rlarida ma’no bor”, degan ekanlar. Bunday aziz zotlarning nazari va e’tirofiga erishish har kimga ham nasib bo‘lavermaydi.

XALQ HAYOTINI BILMASLIK OQIBATI

Bir vaqt oynayi jahon orqali bir sahna asarini ko‘rgandim. Muallif va sahnalashtiruvchi kishilar xalq hayotini bilmaganlari uchun mudhish, fojiaviy xatolarga yo‘l qo‘yganlar.

Yosh kelin va kuyov hali chimildiq hayotini boshlamay turib, kuyov bir necha marta kelinga: “Otangning uyiga jo‘na!”, “Bor, uyingga ket!”, “Tuyog‘ingni shiqillat!” kabi so‘zlarni aytadi. Holbuki, bizning Sharq xalqlarimizda, o‘zbek xalqida erning o‘z jufti haloliga bunday gaplarni gapirishi aslo mumkin emas. Fiqh kitoblarimizda bunday kinoyaviy so‘zlar tufayli er-xotin o‘rtasiga taloq tushishi ta’kidlanadi. Agar bu so‘zlarni ko‘p bor aytsa, oxiri uch taloqqa yetish xavfi bor.

Shuning uchun xalqimizda ayoli: “Xo‘jayin, otamnikiga boraman” yoki: “Onamnikiga borgim kelyapti” desa, eri: “Bor”, demas ekan, balki “Borib kel”, der ekan. “Bor!” degan so‘zning o‘zidan bir kinoyaviy taloq vujudga kelishidan qo‘rqib “kel” so‘zini qo‘shib qo‘yar ekan. “Kel” so‘zini qo‘shish bilan o‘zlarini, oilalarini ma’naviy falokatdan himoya qilar ekanlar. Qarang, xalqimizda qanday go‘zal, qanday yuksak odob namunalari bor!



Nodonlik va jaholatning haddi chegarasi bo‘lishi kerak. Odamzod bu darajada nodon va johil bo‘lmasligi kerak. Ayniqsa, yozuvchi odam, ijodkor shaxs xalq hayotini, milliy odob-axloq asoslarini, xalqning ma’naviy-e’tiqodiy tamoyillarini o‘rganishi va bilishi shart.

Bunday sahna asarlari necha-necha lab oilalarni xonavayron qiladi, necha yuzlab ilmsiz yoshlarning tiliga nojoiz, noxush so‘zlarni joylaydi, hayotini buzadi, oqibatdan nikohi buzilgan holda, ya’ni nikohsiz holda tug‘ilgan bolalar yaxshi axloq va odobdan mahrum bo‘ladi. Chunki hadisi sharifda: “Zinodan va hayzdan tug‘ilgan bolalar yaxshi axloqdan mahrum bo‘ladi”, deyilgan. Bu so‘zga aslo shubha yo‘q.

Mirzo KENJABEK
(“Yoshlarga dil so‘zlarim” kitobidan)

QAYTAR DUNYO

(Sherali akaning aytganlari)

Biz 30-yillarning og‘ir kunlarini boshimizdan kechirganmiz, uka. U zamonlarda xalqning tinka-madorini quritgan soliq degan baloyi azim bo‘lardi. Kambag‘alning sho‘ri edi: kuvisidan yog‘ini, talaktomidan unini, dasturxonidan nonini soliqchilar olib ketar; gohida qo‘y yoki moli ham tortib olinardi.

O‘sha zamonlarda Jumat ismli kishi bo‘lib, qizil hukumatga sodiq, juda faol xizmatchi edi. Hamma uni “Jumat nalo‘kchi” deb atardi. O‘zi o‘rta yosh, qoruvli, abjir. Hukumat bilib bergan ekan unga soliqchilikni. Bir qarasangiz tuxum, yana boshqa kuni yog‘, go‘sht, sut... Talabning adog‘i yo‘q. Vaqtida to‘lamasang, aytganini bermasang, ostonani yemiradi. Har kuni eshik tinimsiz taqillayveradi...

Bu Jumat nalo‘kchi deganimiz jinday bezbet, tarozisi bir oz nosoz, o‘z pallasi bosim keladigan nusxalardan edi. Qorin-qursog‘ini ham zulm bilan sal oshirib olgan ozuqalar evaziga to‘ydirib yurardi.

To‘g‘risi, mendan yaxshi bilasiz, Yaratgan adolatli, uka. Ko‘rguvchi, Bilguvchi, Rahmli, Rahmon u zot, albatta. Bandasi ojiz, qo‘lidan nima ham kelsin? Lekin ulug‘ Yaratguvchi zarraday yomonlikni ham, zarraday yaxshilikni ham hisobga olib turadi. Barcha qilmish-u amallarning mukofoti-jazosi bu dunyoda bo‘lmasa, oxirat maydonida, albatta, ko‘rilajak.

Alloh ayrimlarni amaliga yarasha bu dunyoda ham ko‘pchilikka ibrat etib qo‘yadi. Bilasiz, uka, shu nalo‘kchi – el-urtga, qo‘ni-qo‘shniga zulm o‘tkazgan, dilini og‘ritgan Jumat aka oradan ancha yillar o‘tgach, bizning shahar ko‘chalarida paydo bo‘ldi. Xudo uni oiladek aziz ne’matdan mahrum etgan ekan. Ust-boshiga qarab bo‘lmaydi, yonida yoshroq qizi. Soch degani chakalakzor bo‘lib, to‘zg‘ib yotibdi, bitlab ketgan. Ota-qiz tilanchilik qilishardi. Tabiiyki, men ularning kimligini bilmayman. Ammo ota-onam ularni tanib, bo‘lib o‘tgan qaysidir noxushroq voqeani eslashdi ham. Shunda yoshlik qonim qizib, ota-qizni uyimizdan ko‘chaga haydab chiqarmoqchi bo‘ldim. Biroq otam bilan onam “To‘xta!” deya baravariga buyruq berishdi. Onam suv isitib, qizni yuvib-taradi. Otam eski Jumat nalo‘kchining oldiga dasturxon yozib, bir kun mehmon qildi. Ertasi ketar mahali sadaqa to‘rvasiga oziq-ovqat solib berdi; so‘ng yaxshi so‘z bilan kuzatdi.

Yaxshiyam men o‘shanda jahl otidan darrov tushgan ekanman...

Bahodir KARIM

Vaziyat gazetasi
MUASSIS: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir: podpolkovnik **Rustam ALIMOV**

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Gazeta tahririyat kompyuterxonasida sahifalandi.

Gazeta har haftaning payshanba kuni chiqadi. Topshirish vaqti – 15.00. Topshirildi – 15.00.

Bosh muharrir o‘rinbosari: Dilmurod DO‘ST
Navbatchi muharrir: D.Do‘stbekov
Musahhih: B. Yunusova
Sahifalovchilar: M. Hamroyev, B. Salohiddinov

Tahririyat manzili: 100084, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Sh. Rashidov ko‘chasi, 17-uy.
@vaziyat_muhofaza

O‘zbekiston Respulikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2007-yil 3-yanvarda 0096-son bilan ro‘yxatga olingan.

Gazetadan olingan materiallar manbasi ko‘rsatilishi shart.

Gazeta “Sharq” NMAK bosmaxonasida bosildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Mirobod tumani, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.
Buyurtma № G-949.
Bichimi: A3, hajmi: 4 b.t.
Adadi – 20084 nusxa.

ISSN 2091-5292

Gazetani elektron ko‘rinishda o‘qishingiz mumkin:

Indeks: yakka obunachilar va tashkilotlar uchun – 382